NAMDTU

ISSN 3060-5148

NAMANGAN DAVLAT
TEXNIKA UNIVERSITETI

ILM, TADQIQOT VA TARAQQIYOT

ILMIY JURNALI

2025 №3(11)

- Avtomobil yo'llaridagi innovatsion texnologiyalar va tadqiqotlar
- Transport muhandisligi
- Texnika va texnologiya
- Taraqqiyot strategiyasi: aqlli shahar, raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt
- Energetika va muqobil energiya manbaalari
- Ta'limda zamonaviy texnologiyalar

ittjurnal@namdtu.uz

Namangan shahar, Islom Karimov ko`chasi 12-uy

ISSN 3060-5148 (*e*)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ILM, TADQIQOT VA TARAQQIYOT

ILMIY JURNALI

2025 №3(11)

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ
НАУКА, ИССЛЕДОВАНИЙ
И РАЗВИТИЯ

SCIENTIFIC JOURNAL OF
SCIENCE, RESEARCH
AND DEVELOPMENT

NAMANGAN-2025

2024 yildan nashr etiladi.
Yiliga 6 marta elektron chop qilinadi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024 yil 17-dekabrdagi № 522134 raqam bilan davlat ro‘yxatidan o‘tgan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.01.2025-yildagi PQ-23-sonli qarori bilan Namangan muhandislik-qurilish instituti, Namangan muhandislik-texnologiya instituti va Namangan to‘qimachilik institutlari birlashtirilib Namangan davlat texnika universitetiga o‘zgartirildi.

ILM, TADQIQOT VA TARAQQIYOT ILMIY JURNALI TAHRIR HAY’ATI

Bosh muharrir: **SH.SH.JO‘RAYEV**
Bosh muharrir o‘rinbosari: **D.I.MAXKAMOV**
Mas’ul kotib: **M.A.TUXTABAYEV**

Avtomobil yo‘llaridagi innovatsion texnologiyalar va tadqiqotlar:

Akademik S.S.Negmatov (TDTU “Fan va taraqqiyot” DUK), q.s.f.d. dots. B.K.Duysenbekov (M.Auezov nomidagi JQDU), t.f.d., prof. R.X.Soliyev (NamDTU), t.f.n., dots. Q.M.Inoyatov (NamDTU), t.f.n., dots. Sh.A.Xalimov (NamDTU), t.f.f.d. M.B.Boytemirov (NamDTU).

Transport muhandisligi:

t.f.d.,prof. D.V.Kapskiy (BMTU), I.f.d., prof. R.B.Ivut (BMTU), t.f.n.,dots. J.Xolmirzayev (NamDTU), t.f.f.d.,dots. M.B.Boydadayev (NamDTU), t.f.f.d., dots. Z.T.Munavvarxonov (NamDTU), t.f.n., dots. A.R.Normirzayev (NamDTU).

Texnika va texnologiya:

t.f.n., k.i.x. A.L.Zhaludkevich (NAS of Belarus), t.f.n., k.i.x. O.F.Demidenko (NAS of Belarus), t.f.d., prof. V.M.Turdaliyev (NamDTU), t.f.d.,dots. X.G.Abdulxayev (NamDTU), t.f.n.,dots. A.D.Nuriddinov (NamDTU), t.f.f.d., dots. B.A.Xatamov (NamDTU), t.f.n., dots. S.T.Qodirov (NamDTU), t.f.f.d, dots. R.X.Murodov (NamDTU).

Taraqqiyot strategiyasi: aqlli shahar, raqamli iqtisodiyot, sun’iy intellekt:

Q.s.f.d., dots. K.S. Dosaliyev (M.Auezov nomidagi JQDU), t.f.n., dots.T.M.Jo‘rayev (NamDTU), t.f.n., dots. A.A.To‘xtabayev (NamDTU), t.f.f.d., dots. S.R.Komilov (NamDTU), t.f.f.d.,dots. Z.N.Mamadjanov (NamDTU).

Energetika va muqobil energiya manbalari:

T.f.d., prof. G.A.Govor (NAS of Belarus), f.m.f.d., prof. M.G‘.Dadamirzayev (NamDTU), t.f.f.d., dots. F.F.Sharipov (NamDTU), t.f.n., dots. M.X.Murodov (NamDTU), t.f.f.d., dots. E.X.Berkinov (NamDTU).

Ta’limda zamonaviy texnologiyalar:

Dr. Ahmed Akhlahan (Jawaharlal Nehru Universiteti), t.f.d., prof. B.E.Sultonov (NamDU), p.f.d., prof. O.S.Abdullayeva (NamDTU), p.f.d., prof. T.I.Ismoilov (NamDPI), t.f.f.d., dots. G‘.N.Sharifov (JizDPU), p.f.f.d. dots. P.Botirova (NamDTU), t.f.f.d., dots. M.X.Dadamirzayev (NamDTU).

Muharrirlar: X.M.Soliyev, Z.X.Isoqova, G.F.Valiyeva
Texnik muharrirlar: A.Xamzayev, M.M.Ergashev, M.Z.Muxtarov

MUNDARIJA

AVTOMOBIL YO‘LLARIDAGI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA TADQIQOTLAR

1 Mamirov U.X., Xidirov U.X. Farg‘ona halqa 4r112 yo‘lining Toshkent–Namangan yo‘nalishidagi 0–75 km qismini qayta qurish loyihasini tahlili 6
2 Xalimov Sh.A., Malikov S.A., Komilov S.X. Ko‘p qavatli uylarni qurishda ishlatiladigan fibrobetonning mustahkamlik xossalarini tadqiq qilish 13

TRANSPORT MUHANDISLIGI

3 Normirzayev A.R. Avtomobil atrof-muhitning asosiy ifloslantiruvchisi sifatida..... 22
4 Tuxtabayev M.A., Tursunpo‘latov U.M. Yo‘lovchi tashishda geoaxborot texnologiyalarini qo‘llab transport oqimlari harakatini baholash..... 27

TEXNIKA VA TEXNOLOGIYA

5 Xudayberdiyev F.T. Jindan chiqqan chigitlarni saralash uchun dielektrik saralagich..... 34
6 Khasanov M. Results of an experiment to determine the gravity force developed in the belt transmission of a peanut harvesting machine 38
7 Xudayberdiyev F.T. Chigitlarni uzilish burchagini va elektrodlarga beriladigan kuchlanishni aniqlash 43
8 Mansurov M., Khojiyev B., Qidirov A. Study of the stripper of arachis harvesting machine 47
9 Norbayeva D., Abdullayev F. Study of cotton drying device technologies..... 52
10 Норбаева Д., Эргашев М., Абдуллаев Ф., Абдугуфурова М. Пахтани ифлосликлардан тозалаш муаммоларини тадқиқ қилиш 58
11 Jumanov J.X., Rajabov F.F., Jamolov X.M. IOT qurilmalari yordamida yer osti suvining sathi va sifatini aniqlash hamda o‘lchash qurilmasini yaratish usuli 62

TARAQQIYOT STRATEGIYASI: AQLLI SHAHAR, RAQAMLI IQTISODIYOT, SUN’IY INTELLEKT

12 Kholmirzaev U.A. Economy of knowledge in the evolution of neoclassical and post-schumpeterian models of economic growth..... 71
13 Kamalova N.I., Gulmurodov M.R. Yarimo’tkazgichlarga doir masalalarni yechishda Python dasturlash tilidan foydalanish 78

ENERGETIKA VA MUQOBIL ENERGIYA MANBAALARI

14 Юсупов Д.Е., Исмоилов И.К. О разработке имитационной модели для оценки технического состояния системы охлаждения масляных силовых трансформаторов.... 85

TA’LIMDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR

15 Tukhtabayev M.A. Public-private sector partnership in engineering manpower development in the South Korea education system 97
16 Umarov A.O. “Tranzistorli elektromagnit tebranishlar generatori” mavzusini fanlararo o‘qitishda transport vositalari muhandisligi kasbiga yo‘naltirish 101
17 Voxidov E.R. Fizik masalalarni yechish jarayonida umumta’lim maktablar va akademik litsey o‘quvchilarining bilim faoliyatini boshqarish 107
18 Ibadullayev G.A. Maktab o‘quvchilarida fizik kompetensiyalarni shakllantirish tizimini takomillashtirish 111

CONTENTS

INNOVATIVE TECHNOLOGIES AND RESEARCH ON HIGHWAYS

1 Mamirov U.Kh., Khidirov U.Kh. Analysis of the reconstruction project of the 0–75 km section of the Fergana Ring Road 4r112 in the Tashkent-Namangan direction 6

2 Khalimov Sh.A., Malikov S.A., Komilov S.Kh. Research on the strength properties of fiber concrete used in the construction of multi-storey buildings 13

TRANSPORT ENGINEERING

3 Normirzayev A.R. The car as the main polluter of the environment 22

4 Tukhtabayev M.A., Tursunpulatov U.M. Assessment of traffic flows using geoinformation technologies in passenger transportation 27

ENGINEERING AND TECHNOLOGY

5 Khudaiberdiev F.T. Dielectric sorter for sorting degermed seeds 34

6 Khasanov M. Results of an experiment to determine the gravity force developed in the belt transmission of a peanut harvesting machine 38

7 Khudaiberdiev F.T. Determination of the angle of rupture of seeds and the voltage applied to the electrodes 43

8 Mansurov M., Khojiyev B., Qidirov A. Study of the stripper of arachis harvesting machine 47

9 Norbayeva D., Abdullayev F. Study of cotton drying device technologies 52

10 Norbayeva D., Ergashev M., Abdullaev F., Abdugufurova M. Research into the problems of cleaning cotton from impurities 58

11 Jumanov J.Kh., Rajabov F.F., Jamolov X.M. Method for determining the level and quality of groundwater using IOT devices and creating a measuring device 62

DEVELOPMENT STRATEGY: SMART CITY, DIGITAL ECONOMY, ARTIFICIAL INTELLIGENCE

12 Kholmirzaev U.A. Economy of knowledge in the evolution of neoclassical and post-schumpeterian models of economic growth 71

13 Kamalova N.I., Gulmurodov M.R. Using the Python programming language in solving problems related to semiconductors 78

ENERGY AND ALTERNATIVE ENERGY SOURCES

14 Yusupov D.E., Ismailov I.K. Development of a simulation model for system cooling of electrical power transformers 85

MODERN TECHNOLOGIES IN EDUCATION

15 Tukhtabayev M.A. Public-private sector partnership in engineering manpower development in the South Korea education system 97

16 Umarov A.O. The topic "Transistor electromagnetic oscillation generator" is directed to the profession of vehicle engineering in interdisciplinary training 101

17 Voxidov E.R. Management of cognitive activity of students of secondary schools and academic lyceums in the process of solving physical problems 107

18 Ibadullayev G.A. Improving the system of forming physical competencies in schoolchildren 111

FARG‘ONA HALQA 4R112 YO‘LINING TOSHKENT–NAMANGAN YO‘NALISHIDAGI 0–75 KM QISMINI QAYTA QURISH LOYIHASINI TAHLILI

Mamirov Ulugbek Xabibulaevich, katta o‘qituvchi,
tel.: +998945044333, e-mail: ulugbekmamirov3555@gmail.com
Xidirov Ulugbek Xabibulaevich, katta o‘qituvchi,
xidirovulugbekxabibullayevich@gmail.com
Namangan davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Namangan viloyati 4R112 “Farg‘ona halqa yo‘li”ning Toshkent–Namangan yo‘nalishidagi 0–75 kilometrli qismi qayta qurilishiga doir ishlarda yo‘l belgilarini to‘g‘ri, samarali va standartlarga mos holda joylashtirish muhimligini tahlil qilishga qaratilgan.

Аннотация. Наманганская область 4P112 ставит своей целью проанализировать важность правильной, эффективной и соответствующей нормативам расстановки дорожных знаков при реконструкции участка 0-75 километр «Ферганской кольцевой автодороги» по трассе Ташкент-Наманган.

Abstract. The objective of the 4P112 project in Namangan region is to analyze the importance of correct, effective and compliant placement of road signs during the reconstruction of the 0-75 kilometr section of the Fergana Ring Road along the Tashkent-Namangan highway.

Kalit so‘zlar: yo‘l, yo‘l belgilari, yo‘nalish, yo‘l-transport hodisa, raqamli transport, bekat, Haydovchi, piyoda, Transport oqimi.

Ключевые слова: дорога, дорожные знаки, направление, дорожно-транспортное происшествие, цифровой транспорт, остановка, Водитель, пешеход, Транспортный поток.

Keywords: road, road signs, direction, traffic accident, digital transport, stop, driver, pedestrian, traffic flow.

Kirish. Namangan viloyati 4R112 “Farg‘ona halqa yo‘li”ning Toshkent–Namangan yo‘nalishidagi avtomobil yo‘li – O‘zbekistonning sharqiy qismi va Namangan viloyatini poytaxt bilan o‘rtasida harakatlanadigan yuk va yo‘lovchi transporti uchun asosiy ahamiyatli yo‘l bo‘lib, uning funksional va xavfsiz ishlashi mintaqaning iqtisodiy faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Yo‘l belgilarini o‘rnatish – bu oddiy texnik chora-tadbir emas, balki haydovchilarning qaror qabul qilish tezligi, harakat xavfsizligi, tirbandlikni kamaytirish va transport oqimining uzluksizligini ta’minlovchi asosiy boshqaruv vositasidir.

Ushbu maqolada o‘rnatilgan belgilarning samaradorligini baholash uchun YTH (yo‘l-transport hodisasi) statistikasi, transport oqimi ma’lumotlari, haydovchi fikrlari, GIS-monitoring, vizual baholash metodlari asosida olib boriladi. Maqolaning yakuniy maqsadi – bu yo‘l belgilarining harakat xavfsizligiga ta’sirini real natijalar asosida aniqlash va takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Yo‘l infratuzilmasini modernizatsiya qilish har qanday davlatning transport siyosatida ustuvor yo‘nalishlardan biridir. Ayniqsa, xalqaro va respublika ahamiyatiga ega yo‘llarda yo‘l infratuzilmalarini qayta qurilishi, ularning texnik holatini zamonaviy talablar darajasiga keltirish – harakat xavfsizligi, logistika samaradorligi va iqtisodiy rivojlanish uchun muhim omil hisoblanadi [1-2].

Shu nuqtai nazardan, 4R112 “Farg‘ona halqa yo‘li”ning Toshkent–Namangan yo‘nalishidagi 0–75 km qismini qayta qurish loyihasi mintaqaviy integratsiyaning, ichki transport aloqalarining va xalqaro yo‘lovchi-yuk tashish jarayonlarining uzluksizligini ta’minlovchi asosiy elementdir.

Yo‘l belgilarini o‘rnatish masalasi esa ushbu jarayonning eng muhim, lekin ko‘pincha yetarlicha e’tibor berilmaydigan qismi hisoblanadi. Harakat ishtirokchilarining ongli, tez va xavfsiz harakatlanishini bevosita belgilovchi tizimdir [3-4].

Yo‘l belgilarining yo‘l harakati xavfsizligidagi o‘rnini baholash quyidagicha. Yo‘l belgilarini oddiygina temir ustuncha deb qarash katta xatodir. Aslida ular – harakat ishtirokchilari uchun muhim axborot manbai, nazorat va yo‘naltirish vositasi hamda harakat tartibini ta’minlovchi muhim axborot vositasidur.

Yo‘l belgilarining maqsadi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- harakat ishtirokchilarini ogohlantirish
- yo‘nalish va ko‘rsatma berish
- xavfsizlikni ta’minlash
- axborot bilan ta’minlash
- harakatni tartibga solish

Yo‘l belgilarini joylashtirish tamoyillari:

Yo‘l belgilarini o‘rnatishda ilmiy yondashuv, mezonlar va standartlar asosida amalga oshiriladi. Asosiy tamoyillar quyidagilardan iborat.

- ko‘rinuvchanlik belgi har qanday ob-havo va yoritilish sharoitida ko‘rinadigan bo‘lishi kerak.
- tushunarlilik belgining mazmuni haydovchiga darhol yetib borishi kerak.
- Zaruriyatga asoslanganlik faqat kerakli joylarga o‘rnatiladi, keraksiz belgi – chalg‘ituvchi omil.
- Moslik: mavjud yo‘l sharoiti, harakat rejimi va infratuzilma bilan muvofiq bo‘lishi kerak.

Xalqaro standartlar va O‘zbekiston qonunchiligida yo‘l belgilarini o‘rnatishda quyidagi huquqiy va texnik hujjatlarga tayaniladi:

- O‘zbekiston Respublikasi Yo‘l harakati to‘g‘risidagi qonuni
- O‘z DSt 3291:2016 – Yo‘l belgilarining standartlari
- GOST R 52289-2004 (RF va MDHda qo‘llaniladi)
- Vena Konvensiyasi (1968) – xalqaro standartlarni belgilaydi.

Aytish kerakki aksariyat holatlarda O‘zbekistondagi yo‘l belgilarining talqinlari xalqaro normalarga muvofiqlashtirilgan, ammo ayrim holatlarda mahalliy modifikatsiyalar mavjud.

Yo‘l belgilarini noto‘g‘ri joylashtirish yoki yangilanmagan belgilar oqibatida bir qancha muammolar vujudga kelishi mumkin:

- haydovchilarning vaqtli qaror qabul qilishiga to‘sqinlik qiladi.
- YTH (yo‘l-transport hodisasi) xavfi oshadi.
- xalqaro transport vositalari uchun navigatsion chalkashliklar tug‘iladi.
- svetofor, chiziqlar va belgilar o‘rtasida mantiqiy bog‘liqlik buziladi.
- yo‘l harakati ishtirokchilarida ishonchsizlik paydo bo‘ladi.

Bugingi kunda zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalar bilan birgalikda dunyodagi yo‘l belgilarini quyidagilar bilan bog‘lash mumkin:

- sensorli (interaktiv),
- LED yoritilgan,
- GPS bilan bog‘langan,
- qo‘zg‘aluvchi (portativ),
- avtomatik ravishda holat o‘zgaruvchi belgilar asosida yaratish tendensiyasi kuchaymoqda. Bu texnologiyalar:
- yoritilmagan yo‘llarda xavfsizlikni oshiradi,

- ob-havo sharoitlariga moslashadi,
- raqamli transport boshqaruvi tizimlari bilan integratsiyalashadi.

O‘zbekistonda bu texnologiyalar hali keng joriy etilmagan bo‘lsada, “aqlli Shahar” va “raqamli transport” loyihalari doirasida bosqichma-bosqich joriy etilmoqda [5].

4R112 “Farg‘ona halqa yo‘li”ning 0–75 km qismida yo‘lning qayta qurilishi nafaqat asfalt qoplamasini yangilash, balki yo‘l harakati xavfsizligini oshiruvchi muhim infratuzilmani takomillashtirishni, ya’ni yo‘l belgilarini to‘g‘ri joylashtirishni ham o‘z ichiga oladi. Belgilarning mavjud holatini tahlil qilinganda 2025-yil may holatiga ko‘ra, o‘rganilgan 0–75 km oralig‘ida quyidagi kamchiliklar qayd etildi:

Belgilar soni va zichligi bo‘yicha:

- Jami o‘rnatilgan belgilar soni: ~430 dona
- Shundan:
- ogohlantiruvchi belgilar – 130 ta (30%)
- ta’qiqlovchi belgilar – 85 ta (20%)
- yo‘naltiruvchi belgilar – 140 ta (32%)
- qo‘shimcha axborot belgilar – 75 ta (18%)

Muammo: Ayrim uchastkalarda belgilar ortiqcha zichlikda o‘rnatilgan – bu haydovchini chalg‘itadi. Boshqa joylarda esa belgilarning yetishmasligi yoki umuman yo‘qligi aniqlangan.

Fizik holati (ko‘rinuvchanlik, yangilanish holati) ga ko‘ra quyidagicha:

- 23% belgilarning reflektor qatlami buzilgan;
- 15% belgilarning ustunlari zanglagan yoki egilgan;
- ayrim belgilarda matnli axborotlar o‘chgan, ayniqsa quyoshga to‘g‘ri qaragan yo‘nalishlarda.

Yo‘l belgilarining joylashuvi va standartlarga muvofiqligini ko‘rib chiqamiz.

Normativga muvofiqlik tahlili (O‘z DSt va GOST asosida)

- 36 ta belgi balandligi normaga mos emas (masofa 1,5 m o‘rniga 1 m yoki 2,2 m);
- 28 ta belgi keraksiz yaqinlikda (norma bo‘yicha 50–70 m, amalda 20 m yoki kamroq);
- 18 ta chorrahada ustuvorlik belgisi umuman mavjud emas – YTH xavfi yuqori.

Natija: Belgilar joylashuvi ko‘p hollarda loyiha rejasidan chetga chiqqan. bu qurilish ishlari vaqtida nazoratning yetarli bo‘lmaganini ko‘rsatadi.

Haydovchilar va foydalanuvchilarning fikri o‘rganildi so‘rovnoma 102 nafar haydovchilar o‘rtasida o‘tkazildi.

1-jadval

So‘rovnomadan o‘tkazish natijalari

Savol	Ha (%)	Yo‘q (%)
Yo‘l belgilarini ko‘rish va tushunishda qiynalasizmi?	67	33
Belgilar tunda yaxshi ko‘rinadimi?	45	55
Sizga kerakli belgi yetishmasligi holatini kuzatgansizmi?	72	28
Belgilarning ortiqchaligi sizni chalg‘itganmi?	38	62

Belgilarning ko‘rinuvchanligi va aniq axborot berish xususiyati haydovchilar tomonidan past baholangan. Belgilarning yetishmasligi va yaroqsiz holatga kelgani ham sezilarli darajada xavf tug‘diryapti.

Belgilar yo‘qligi yoki noto‘g‘ri joylashtirilgan joylarda YTH ehtimoli yuqoriroq. Ayniqsa, chorrahalarda “Ustuvorlik belgisi” yo‘qligi xavfli oqibatlarga olib kelmoqda.

2-jadval

YTH (Yo‘l-transport hodisasi) statistikasiga ko‘ra, y’ani YHXBB (2022–2024) ma’lumotlariga ko‘ra

Yil	YTH soni (0–75 km)	Belgisiz chorrahalardagi YTH (%)
2022	37	48%
2023	41	52%
2024 (yanvar–aprel)	18	61%

O‘zbekiston Respublikasi hududida foydalanishdagi etti guruhdagi: ogohlantiruvchi, imtiyoz, ta’qiqlovchi, buyuruvchi, axborot-ko‘rsatuvchi, servis, qo‘shimcha axborot yo‘l belgilari Venada 1968-yil qabul qilingan yo‘l belgilari Konventsiyasiga va bu Konventsiyani to‘ldiruvchi Jenevadagi 1971-yil Yevropa kelishuvi talablariga to‘liq mos keladi.

Avtomobil yo‘llarida va shahar ko‘chalarida yo‘l belgilarini o‘rnatish GOST 23457-86, ularning o‘lchamlari esa GOST 10807-78 talablariga javob berishi kerak.

Avtomobil yo‘llarida yo‘l belgilari quyidagi ketma-ketlikda o‘rnatilishi kerak ko‘rsatuvchi (axborot-ko‘rsatuvchi), imtiyoz, servis va tablichkalar, ogohlantiruvchi, buyuruvchi, ta’qiqlovchi.

O‘rnatiladigan yo‘l belgilarining umumiy soni yo‘lda iloji boricha kam bo‘lishi kerak. Har bir o‘rnatilayotgan ogohlantiruvchi yoki ta’qiqlovchi yo‘l belgilari asoslangan bo‘lishi shart va yo‘l sharoiti yomonlashganligi oqibatida ko‘rilgan majburiy chora deb tushunilishi kerak. Shuning uchun ogohlantiruvchi va ta’qiqlovchi belgilar ko‘pchilik hollarda vaqtincha o‘rnatilib, ma’lum yo‘l sharoiti yaxshilangandan so‘ng olib tashlanishi kerak. Shuningdek, mavsumga qarab o‘rnatiladigan yo‘l belgilarini ham vaqt o‘tishi bilan tezda olib tashlash kerak [6].

Yo‘l belgilarini shunday o‘rnatish kerakki, ularni kunning yorug‘ vaqtida ko‘rish masofasi 150 m dan kam bo‘lmasligi kerak. Haydovchiga u yoki bu uchastkada o‘rnatilgan belgini ko‘rish masofasining qiymati shu uchastkadagi tezlikning ikki barobariga yoki undan katta qiymatiga teng bo‘lishi kerak. Bu holatda yangi qurilayotgan yo‘llar uchun tezlik hisobiy tezlikdan 70% olinsa, foydalanayotgan yo‘llarda esa transport vositalarining 85 % tezligidan oshmaydigan tezlik qabul qilinadi.

Yo‘l xo‘jalik xodimlari yo‘l belgilarini muntazam ravishda tozalab turishlari va ko‘rish uchun xalal berayotgan daraxt butalarini kesib turishlari kerak.

Ketma-ket joylashtirilgan yo‘l belgilari aholi yashamaydigan yo‘l uchastkalarida 50 m va aholi yashaydigan joylarda esa 25 m dan kam bo‘lmagan masofada o‘rnatilishi lozim.

Ko‘ndalang kesimda yo‘l belgilarini joylashtirishda quyidagi-larga ahamiyat berish kerak. Yo‘lning bitta ko‘ndalang kesimida uchtadan ortiq yo‘l belgisini o‘rnatish ruxsat etilmaydi. Bunda qo‘shimcha axborot beruvchi va qaytaruvchi belgilar hisobga olinmaydi. Bunday hollarda belgilarni gorizontal (bu ko‘proq qulay bo‘ladi) yoki vertikal o‘rnatish kerak. Yo‘l belgilari yo‘lning o‘ng tomonida qatnov va yo‘l yoqasi qismidan tashqarida (maxsus holatlardan boshqa) o‘rnatiladi.

Yo‘l belgilari o‘zlarining ishlatilish yo‘l sharoitiga qarab GOST 10807-78 “Yo‘l belgilari” ko‘rsatmasiga asosan to‘rt tur o‘lchamda bo‘lib, quyidagicha tasniflanadi. I-kichik, II-normal, III-katta, IV-juda katta.

Ushbu diplom loyiha ishini 4R112 “Farg‘ona halqa yo‘li”ning 0–75 km qismi – bu yo‘lovchi tashish va transporti uchun muhim tugun bo‘lib, u erda harakat xavfsizligini ta’minlash juda zarur. Shahar aholisining ko‘payishi, transport vositalarining sonining ortishi va

yo‘lovchilar oqimining zichligi tufayli ushbu hududda ba’zi xavfsizlik muammolari mavjud [7]. Harakat xavfsizligini oshirish uchun quyidagi choralar ko‘rilishi mumkin.

Yo‘l belgilari va signallarini yangilash – Bekat atrofida aniq yo‘nalish ko‘rsatkichlari, piyodalar o‘tish joylari va transport oqimini tartibga soluvchi signallar o‘rnatilishi kerak.

Piyodalar uchun xavfsiz sharoitlar – Piyodalar o‘tish joylarini ko‘paytirish, to‘siqlar o‘rnatish va yoritishni yaxshilash zarur.



1-rasm. 4R112 “Farg‘ona halqa yo‘li”ning Toshkent–Namangan yo‘nalishidagi 0–75 kilometr avtomobil yo‘lining joylashuv sxemasi

Nazoratni kuchaytirish – Kamerali nazorat tizimlari va harakat qoidalarini buzuvchilarga nisbatan qat’iy choralar ko‘rish samarali bo‘ladi.

Haydovchilar va piyodalar uchun ogohlantirish ishlari – Ma’ruzalar, ijtimoiy reklamalar va qo‘llanmalar orqali xavfsiz harakat qoidalari haqida tushuncha oshirish lozim.

Infratuzilmani modernizatsiya qilish – Yo‘llarni ta’mirlash, to‘xtash joylarini kengaytirish va jamoat transporti uchun maxsus yo‘laklar ajratish trafikni kamaytirishi mumkin.

Ushbu choralar samaradorligini ta’minlash uchun mahalliy hokimiyat, yo‘l xavfsizligi xizmatlari va fuqarolar hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

Namangan viloyatidagi avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligi xolatini taxlil etish natijasida quyidagi kamchiliklar aniqlandi.

Avtomobil yo‘llarining bo‘ylariga me’yoriy ko‘rsatmalarga zid xolatda savdo shaxobchalari qurilgan. Ayrim yo‘llarda piyodalar harakatlanadigan yo‘laklarni (trotuar) ustiga har xil savdo o‘rinlari tashkil etilgan.

Avtomobil yo‘llarida sodir etilgan yo‘l transport hodisalarini ko‘chalar bo‘yicha taxlil etilganda eng ko‘p yo‘l transport hodisalari Namangan viloyatining Chust, Pop shahar markazlaridan o‘tgan.

Sodir etilgan yo‘l transport hodisalarining 33 foizi piyodalar bilan sodir bo‘lganligi aniqlandi. Bu esa transport gavjum ko‘chalarda piyodalar oqimi yuqoriligidan dalolat beradi. Ana shu sababli sodir etilgan yo‘l transport hodisalarini elementlar bo‘yicha taxlil etish yo‘li bilan mavjud kamchiliklar aniqlandi va tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

Avtomobil yo‘llarida yo‘l sharoitlarini yaxshilash, kerakli yo‘l harakatini tartibga soluvchi texnik vositalar bilan ta’minlash, ta’mirlash, kengaytirish, piyodalar yer osti yo‘llarini tashkil etish natijasida yo‘l transport xodisasi va Namangan viloyatida sodir etilgan yo‘l transport xodisalaridan ko‘riladigan iqtisodiy zararlar kamayadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, har qanday transport vositalari qatnaydigan avtomobil yo‘llarida yo‘l-transport hodisalarini oldini olishda, havfsiz harakatlanishni to‘g‘ri tashkil etishda harakatni tartibga soluvchi texnik vositalar ya’ni yo‘l belgilari, yo‘l chiziqlari, yo‘l to‘siqlari va svetoforlarning o‘rni hamda ahamiyati katta. Harakatni tartibga soluvchi texnik vositalarning yo‘llarda xavfsizlikni ta’minlashdagi o‘rni va ahamiyatini baholanishi dissertatsiya ishi mazmunini yoritish orqali to‘liq ochib berilgan.

Namangan viloyat avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligi xolatini o‘rganish, tadqiq etish va taxlil qilish natijasida ushbu yo‘llarda harakat xavfsizligini ta’minlash va takomillashtiri maqsadida quyidagi ishlar bajarildi va tegishli tavsiyalar ishlab chiqildi:

Xavfsiz harakatni tashkil etishda haydovchilarning o‘rni va majburiyatlari asoslab berildi.

Xavfsiz harakatni tashkil etishda piyodalarning o‘rni va majburiyatlari asoslab berildi.

Xavfsiz harakatni tashkil etishda yo‘lovchilarning o‘rni va majburiyatlari asoslab berildi.

Harakatni tartibga solishda transport vositalariga qo‘yilgan talablar asoslab berildi.

Tartibga va tartibga solinmagan chorraxalarda harakatni to‘g‘ri tashkil etish choralari belgilab berildi.

Transport vositalar oqimini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni o‘rganish orqali xavfsiz harakatni tashkil etish usullari ishlab chiqildi.

Harakatni boshqarishning texnik vositalari va ulardan foydalanishni ahamiyati va o‘rni belgilab chiqildi.

Yo‘l belgilarining turlari va ularni o‘rnatishda qo‘yiladigan umumiy talablardan kelib chiqib, uning xavfsizlikni ta’minlashdagi o‘rni baholandi.

Har xil yo‘l sharoitlarida yo‘l belgilarini qo‘llash va ular yordamida harakatni tashkil etish eng ma’qbul usullari tavsiya etildi [8-9].

Yo‘l chiziqlarini tushirishga qo‘yiladigan umumiy talablardan kelib chiqib, yo‘llarda xavfsizlikni ta’minlashda yo‘l chiziqlaridan foydalanishning eng ma’qbul usullari tavsiya etildi.

Yo‘l to‘siqlari yordamida harakatni tashkil etishd I-tur va II-tur yo‘l to‘siqlaridan foydalanishning eng ma’qbul usullari tavsiya etildi.

Avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini ta’minlashda zamonaviy yo‘l to‘siqlarining ahamiyati kshrsatib berildi [10-13].

Harakatni tashkil qilishda transport va piyoda svetoforlarining o‘rni yoritilib berildi.

Sodir bo‘layotgan yo‘l-transport hodisalari va aniqlanayotgan qoidabuzarliqlarning kamayytirishda yangi zamonaviy innovatsion texnik vositalar va qurilmalardan foydalanish tadbir-choralari ishlab chiqildi.

Avtomobil yo‘llarida harakatni boshqarishningtexnik vositalarini qo‘l-lash orqali harakat xavfsizligini ta’minlanish darajasi baholab berildi.

Yo‘l-transport hodisalari turlari va ularni oldini olish, kamaytirish uchun harakatni boshqarishning texnik vositalarini qo‘llash adbir-choralarini iqtisodiy baholab berildi.

4R112 “Farg‘ona halqa yo‘li”ning 0–75 km qismida 2024 yil 18-0-18 yo‘l transport hodisasi bo‘lgan, shu hodisalarni kamaytirish maqsadida, yo‘l sharoitlarini yaxshilash, ta’mirlash, kengaytirish, piyodalar er osti yo‘llarini tashkil etish natijasida yo‘l transport hodisasi 30 foizga kamayadi. Sodir etilgan yo‘l transport hodisalaridan ko‘riladigan zarar 3014584 so‘mni. Ko‘rilgan tadbirlardan so‘ng iqtisodiy samaradorlik 0,17 ni, xarajatlarni qoplsh muddati.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usmon Haitov. “Avtomobillarni boshqarish asoslari va harakatlanish xavfsizligi” O‘zbekiston 2001 yil. 220 bet.

2. Q.X.Azizov. “Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari” Toshkent-2009 “Yozuvchi” nashriyoti.244-bet.

3. Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston respublikasi qonuni, 1999yil 19 avgust.

4. Саидюсупов М. Б., Хидиров У. Х., Мамиров У. Х. Теория совершенствования маршрутной схемы пассажирского транспорта в крупных городах //Экономика и социум. – 2023. – №. 6-1 (109). – С. 992-997.

5. Xabibullaevich, X. U. B. (2024). JAMOAT TRANSPORTIDA HARAKATLANISH VAQTI INDEKSINI QO‘LLASH. *Строительство и образование*, *3*, 244-247.

6. Mamirov U. X., Saidyusupov M. B., Zokirov I. O. Chorraha o‘tkazuvchanligini oshirish metadalogiyasi (namangan shahri misolida) //Экономика и социум. – 2023. – №. 5-2 (108). – С. 193-206.

7. Саидюсупов, М. Б., Хидиров, У. Х., & Мамиров, У. Х. (2023). Катта шаҳарларда йўловчи ташишнинг йўналиш схемасини такомиллаштириш методологияси. *Механика и технология*, (1 (4) Спецвыпуск), 117-121.

8. М Аъзамбоев, У Хидиров, Х Атахонов., Разработка оперативных мероприятий по снижению финансовых расходов на материальные ресурсы. Экономика и социум. №6 (61) 2019

9. Hidirov S. Demiryolu Altyapı yönetiminde güvenilirlik, bulunabilirlik ve sürdürülebilirlik analiz tekniklerinin kullanılması. – 2019.

10. Xidirov, U., Turg‘unov, Z., & Abdusattarov, J. (2024). Shaxar ko ‘chalarida harakatlanish qulayligini ta'minlash mezoni va uni takomillashtirish usullari. *Ilm, tadqiqot va taraqqiyot/Наука, исследования и развитие*, *2*(6), 39-42.

11. To‘xtaboev, M. A., & Mamirov, U. X. (2022). Shaharda avtomobilda tashishda harakat muntazamligini oshirish (namangan shahri misolida). *Механика и технология*, (Спецвыпуск 1), 101-108.

12. Karimova, S., & Xidirov, U. (2025). Transport jarayonida harakat xavfsizligini muvofiqlashtish tartibga solish asoslari va tamoyillari. *Ilm, tadqiqot va taraqqiyot/Наука, исследования и развитие*, *2*(10), 35-39.

13. Ataxanov, X., Xidirov, U., & Mirsaidov, B. (2024). Yo ‘l transport hodisalaridan ko‘rilgan zararlar. *Ilm, tadqiqot va taraqqiyot/Наука, исследования и развитие*, *4*(8), 26-31.

KO‘P QAVATLI UYLARNI QURISHDA ISHLATILADIGAN FIBROBETONNING MUSTAHKAMLIK XOSSALARINI TADQIQ QILISH
ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЧНОСТНЫХ СВОЙСТВ ФИБРОБЕТОНА ДЛЯ МНОГОЭТАЖНЫХ ЗДАНИЙ
STUDY OF STRENGTH PROPERTIES OF FIBER-REINFORCED CONCRETE FOR MULTI-STORY BUILDINGS

Xalimov Sh.A., dotsent,
Tel:+998999725813, E-mail:shuxratxalimov1978@gmail.com
Malikov S.A., o‘qituvchi,
Komilov S.X., talaba
Namangan davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ko‘p qavatli binolarni uchun fibrobeton konstruksiyasining mustahkamligiga tolalarninr sinchlash yo‘nalishiga va miqdoriga ta’sirini tadqiq qilish bayon etilgan. Tolani mustahkamlash yo‘nalishi bo‘ylab, bo‘ylama yo‘nalish bo‘ylab kuchlanish qo‘llaniladigan vaziyat uchun kuchlanish-deformatsiya harakatini ko‘rib chiqilgan. Fibrabeton kompozitlarini mustahkamligiga sinchlovchi tolalar uzunligining ta’siri tadqiq qilingan. Poliakrilonitril tola va to‘ldiruvchi ingidrientlarning kombinatsiyasining kompozit polimer materiallarining mustahkamlik xususiyatlariga ta'sirini o‘rganilgan. Epoksid kompozitsiyalarining mustahkamlik xususiyatlarining to‘ldiruvchi ingredientlar va poliakrilonitril tolalar tarkibiga bog‘liqligi aniqlangan.

Kalit so‘zlar. Polimer, shisha tola, bazalt tola, uglerod tola, mustahkamlik, sinchlash, sement beton, fibrobeton, texnologiya.

Аннотация. В данной статье описывается исследование влияния направления и количества армирования фиброй на прочность фибробетонных конструкций многоэтажных зданий. Рассмотрено напряженно-деформированное состояние для случая, когда натяжение приложено вдоль направления армирования фиброй и в продольном направлении. Изучено влияние длины армирующих волокон на прочность фибробетонных композитов. Изучено влияние сочетания полиакрилонитрильных волокон и ингредиентов наполнителя на прочностные свойства композиционных полимерных материалов. Определена зависимость прочностных свойств эпоксидных композитов от ингредиентов наполнителя и содержания полиакрилонитрильных волокон.

Ключевые слова. Полимер, стекловолокно, базальтовое волокно, углеродное волокно, прочность, армирование, цементобетон, фибробетон, технология.

Abstract. This article describes the study of the effect of the direction and amount of fiber reinforcement on the strength of fiber-reinforced concrete structures of multi-story buildings. The stress-strain state is considered for the case when tension is applied along the direction of fiber reinforcement and in the longitudinal direction. The effect of the length of reinforcing fibers on the strength of fiber-reinforced concrete composites is studied. The effect of the combination of polyacrylonitrile fibers and filler ingredients on the strength properties of composite polymer materials is studied. The dependence of the strength properties of epoxy composites on the filler ingredients and the content of polyacrylonitrile fibers is determined.

Key words. Polymer, glass fiber, basalt fiber, carbon fiber, strength, reinforcement, cement concrete, fiber concrete, technology.

Kirish. So‘nggi yillarda dunyoda talafotli zilzilalar soni ortib, ular aholi hayoti va mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmalariga jiddiy ta’sir ko‘rsatayotganligi sababli seysmik xavfsizlikni ta’minlash sohasini doimiy takomillashtirib borish muhim ahamiyat kasb

etmoqda. Shu sababli, seysmik xavfsizlikni ta’minlash sohasiga zamonaviy yondashuvlarni joriy qilish, bino va inshootlarning zilzilabardoshligini yanada oshirishning yangi usullarini ishlab chiqish va yangi turdagi innovatsion qurilish materiallarini ishlab chiqarish dolzarblik kasb etmoqda [1].

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish maqsadida dispers armaturali fibrobeton konstruksiyasini olish texnologiyasi ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Ko‘p qavatli binolar uchun zilzilaga bardoshli yengil va energiyatejamkor materiallarini yaratishda shisha, bazalt, polipropilen va metall tolalari bilan sinchlangan fibrobeton konstruktsiyalari istiqbolidir [2,3].

Qurilish sanoatida ko‘p foydalaniladigan sement beton kompozitlar keng tarqalgan yirik zarrachali kompozitlar bo‘lib, unda matritsa va dispers fazalar keramik materiallardir. To‘ldiruvchilar shag‘al va qum bo‘lib, sement beton konstruktsiyalari qurilish materiali sifatida keng qo‘llaniladi. Sement beton aralashmasining etarlicha mustahkamlikka erishishi uchun ingredientlarni to‘g‘ri nisbatda qo‘shish kerak. Ikki xil o‘lchamdagi zarrachalarga ega bo‘lgan aralashmaning zich to‘ldirilishi va o‘zaro mustaxkam aloqaga erishilishi uchun qumning mayda zarralari shag‘al zarralari orasidagi bo‘shliqlarni to‘ldirishi kerak. Odatda, bu aralashmaning umumiy hajmning 60% dan 80% gacha bo‘lgan qismini tashkil qiladi [4]. Sement bilan suv aralashmasi miqdori barcha qum va shag‘al zarralarini qoplash uchun etarli bo‘lishi kerak, aks holda, sementli bog‘lanish mustahkam bo‘lmaydi. Bundan tashqari, barcha tarkibiy qismlarni yaxshilab aralashtirish kerak.

Sement betonning mustahkamligini qo‘shimcha mustahkamlash orqali zilzilabardosh, mustahkam, egiluvchan sementbeton kompozitlarini olish mumkin. Bu, odatda, yangi va istiqbolli yo‘nalish bo‘lib, shisha, bazalt, polietilen kabi yuqori modulli tolalarni sement betonga aralashtirish orqali amalga oshiriladi. Natijada, tolalar bilar mustahkamlash sement beton strukturasini yuqori mustahkam, siqilishga va uzilishga mustahkam, zilzilaga bardoshliligini oshirishga xizmat qiladi.

Usullar. Materiallarni tolalar bilan mustahkamlashning usullari ko‘p bo‘lib, aynan sement beton konstruksiyasini tolalar bilan mustahkamlashda sement beton kompozitsiyasidagi bog‘lovchi va to‘ldiruvchilarning fizik-mexanik, fizik-kimyoviy va deformatsion xossalarini xisobga olish maqsadga muvofiqdir. Kompozit materiallarni tolalar bilan mustahkamlashda tolalarni yuza bo‘ylab joylashtirilishi 1 – 2 rasmlarda keltirilgan [5].



1-rasm. Tolalar bilan mustahkamlangan kompozitlarning sxematik ko‘rinishi. a-uzluksiz tolali bir tomonlama yo‘naltirilgan, b-qisqa tolali bir tomonlama yo‘naltirilgan, c- qisqa tolali tasodifiy yo‘naltirilgan

Tolalar bilan mustahkamlangan kompozitlarning mexanik xossalari bir nechta omillarga bog‘liq, jumladan tolalar va matritsa fazalarining kuchlanish-deformatsiyalari, faza hajmining fraksiyalari va kuchlanish yoki yuk qo‘yiladigan yo‘nalish. Bundan tashqari, tolalar bilan sinchlangan kompozitlarning xususiyatlari yuqori anizotropikdir, ya'ni ular o‘lchanadigan yo‘nalishga bog‘liq [5]. Keling, birinchi navbatda, 1-rasmda ko‘rsatilgan tolani mustahkamlash yo‘nalishi bo‘ylab, bo‘ylama yo‘nalish bo‘ylab kuchlanish qo‘llaniladigan vaziyat uchun kuchlanish-deformatsiya harakatini ko‘rib chiqaylik.

2-rasmda sxematik tarzda tasvirlangan tolalar va matritsa fazalari uchun kuchlanish va deformatsiyaning harakatlari keltirilgan; ushbu xolatda biz tolani butunlay mo‘rt, matritsa fazasini esa elastik deb hisoblaymiz. Shuningdek, ushbu rasmda mos ravishda tola va matritsa, σ_f va σ_m uchun mustahkamligi va ularning mos keladigan buzuvchi kuchlaanishlari ϵ_f va ϵ_m ko‘rsatilgan, bundan tashqari, $\epsilon_m > \epsilon_f$ deb olamiz, bu odatda shunday bo‘ladi.



a) b)

2-rasm. (a) Tolalar va egiluvchan matritsali materiallar uchun kuchlanish-deformatsiyaning sxematik egri chiziqlari. (b) Mustahkamlash yo‘nalishi bo‘yicha qo‘llaniladigan bir o‘qli kuchlanishga duchor bo‘lgan tola bilan mustahkamlangan kompozit uchun sxematik kuchlanish - deformatsiya egri chizig‘i

Ushbu tola va matritsali materiallardan tashkil topgan tola bilan mustahkamlangan kompozitsion 2-rasmda ko‘rsatilgan bir o‘qli kuchlanish-deformatsiya reaktsiyasini namoyish etadi. Dastlabki bosqich I mintaqasida tolalar ham, matritsa ham elastik deformatsiyalanadi, odatda egri chiziqning bu qismi chiziqli bo‘ladi [6]. Odatda, bunday turdagi kompozitlar uchun matritsa hosil bo‘ladi va plastik deformatsiyalanadi, tolalar elastik cho‘zilishda davom etadi, chunki tolalarning mustahkamligi matritsaning oquvchanligidan sezilarli darajada yuqori bo‘ladi. Bu jarayon rasmda ko‘rsatilganidek, II bosqichni tashkil etadi. Bu bosqich odatda chiziqli bo‘lib, I bosqichga nisbatan qiyaliklari pasayadi. I bosqichdan II bosqichga o‘tishda tolalarga tushadigan yukning miqdori ortadi. Kompozitda buzilishning boshlanishi tolalar yorilishi bilan

boshlanadi, bu 2-rasmda ko‘rsatilganidek, taxminan ϵ_f kuchlanishiga to‘g‘ri keladi. Kompozit nosozlik bir necha sabablarga ko‘ra halokatli emas. Birinchidan, hamma tolalar bir vaqtning o‘zida uzulmaydi, chunki tolali materiallarning sinish kuchida har doim sezilarli o‘zgarishlar bo‘ladi [6]. Bundan tashqari, tolalar ishdan chiqqandan keyin ham matritsa $\epsilon_m > \epsilon_f$ darajasida saqlanib qoladi. Shunday qilib, asl tolalarga qaraganda qisqaroq bo‘lgan bu singan tolalar hali ham buzilmagan matritsa ichiga joylashtirilgan va shuning uchun matritsa plastik deformatsiyalanishda davom etar ekan, pasaytirilgan yukni ushlab turishga qodir.

Ko‘p qavatli binolar uchun zilzilaga bardoshli yengil va energiyatejamkor materiallarini yaratishda shisha, bazalt, polipropilen va metall tolalari bilan sinchlangan fibrobeton konstruktsiyalari istiqbollidir.

Sement betonning mustahkamligini tolalar bilan mustahkamlash orqali zilzilabardosh, mustahkam, egiluvchan sementbeton kompozitlarini olish mumkin. Bu, odatda, yangi va istiqbolli yo‘nalish bo‘lib, shisha, bazalt, polietilen kabi yuqori modulli tolalarni sement betonga aralashtirish orqali amalga oshiriladi. Natijada, tolalar bilar mustahkamlash sement beton strukturasini yuqori mustahkam, siqilishga va uzilishga mustahkam, zilzilaga bardoshliligini oshirishga xizmat qiladi.

Materiallarni tolalar bilan mustahkamlashning usullari ko‘p bo‘lib, aynan sement beton konstruksiyasini tolalar bilan mustahkamlashda sement beton kompozitsiyasidagi bog‘lovchi va to‘ldiruvchilarning fizik-mexanik, fizik-kimyoviy va deformatsion xossalarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Tola bilan sinchlangan fibrobeton kompozitlarining mexanik xususiyatlari nafaqat tolaning xususiyatlariga, balki qo‘llaniladigan yukning tolalarga matritsa fazasi orqali o‘tish darajasiga ham bog‘liq. Ushbu yuk o‘tkazuvchanligi darajasida tolalar va matritsa fazalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishning kattaligi muhim ahamiyatga ega. Qo‘llaniladigan kuchlanish ostida tola va matritsa o‘rtasidagi bog‘lanish tolaning uchlarida to‘xtaydi, natijada 3-rasmda sxematik ko‘rsatilgandek matritsaning deformatsiyasi paydo bo‘ladi, boshqacha qilib aytganda, tolaning har bir uchida matritsadan yuk o‘tkazilmaydi.



3-rasm Qo‘llaniladigan kuchlanish yukiga duchor bo‘lgan tolani o‘rab turgan matritsadagi deformatsiyalar sxemasi

Sement beton kompozitlarini samarali mustahkamlash uchun tolalar uzunligi muhim ahamiyatga ega. Ushbu kritik uzunlik l_c tolaning diametri d va uning solishtirma mustahkamligi σ_f^* ga va tola-matritsaning bog‘lanish mustahkamligiga τ_c ga bog‘liq [7].

$$l_c = \frac{\sigma_f^*}{2\tau_c} \quad (1)$$

Aynan shu kritik uzunlikka ega bo‘lgan tolaga σ_f^* ga teng kuchlanish qo‘llanilganda, 4a-rasmda ko‘rsatilgan kuchlanish-pozitsiya profili hosil bo‘ladi, ya'ni maksimal tola yukiga faqat tolaning o‘q markazida erishiladi. Tolaning uzunligi ***l*** oshgani sayin, tola bilan mustahkamlash samaraliroq bo‘ladi, bu 4b-rasmda ko‘rsatilgan, qo‘llaniladigan kuchlanish tolaning

mustahkamligiga teng bo‘lganda $l > l_c$ uchun kuchlanish-eksenel holat profiliga, 4c-rasmda $l < l_c$ uchun stress-pozitsiya profili ko‘rsatilgan.



4-rasm Tola uzunligi l (a) kritik uzunlik l_c ga teng bo‘lsa, (b) kritik uzunlikdan kattaroq bo‘lsa va (c) tola bilan mustahkamlangan kompozit uchun kritik uzunlikdan kichik bo‘lsa, kuchlanish holati profillari. Tolaning kuchlanish kuchi σ_f ga teng kuchlanish kuchlanishiga duchor bo‘lgan

$\boldsymbol{l \geq l_c}$ (odatda $l > 1{,}5 * l_c$) uzluksiz yoki qisqa tolalar deb ataladigan tolalar uzunligi bundan qisqaroqdir. Uzunligi $\boldsymbol{l_c}$ dan sezilarli darajada kichik bo‘lgan uzluksiz tolalar uchun matritsa tola atrofida shunday deformatsiyalanadiki, deyarli hech qanday kuchlanish o‘tkazilmaydi va tola tomonidan kam mustahkamlanadi. Bular asosan yuqorida aytib o‘tilganidek, zarrachali kompozitsiyalardir [7]. Kompozitning mustahkamligini sezilarli darajada yaxshilash uchun tolalar uzluksiz bo‘lishi kerak.

Mustahkamligi oshirilgan kompozit polimer materiallari ko‘p komponentli tizimlar bo‘lib, unda formuladagi ingredientlarning umumiy soni 6 yoki undan ko‘pga etadi. Umuman olganda, ishlatiladigan ingredientlar va bog‘lovchilarni uchta asosiy guruhga bo‘lish mumkin: mustahkamlovchi komponent - sintetik va tabiiy tolalar, kukunli va noorganik va organik kelib chiqadigan boshqa to‘ldiruvchi moddalar, polimer bog‘lovchilar - sintetik qatronlar.

Kombinatsiyalangan biriktiruvchi qismlar o‘rtasidagi munosabat kompozit materialning xususiyatlarini - uning fizik-mexanik xususiyatlarini belgilaydi[8]. Qatronlar miqdorining oshishi materialning qattiqligi, mo‘rtligi va issiqlikka chidamliligining oshishiga olib keladi. Plastifikator miqdorini oshirish qattiqlikni pasaytiradi va dinamik xususiyatlarning kattaligi va barqarorligini oshiradi. Kombinatsiyalangan bog‘lovchidan foydalanish yuqori quvvatli mustahkamlangan kompozit polimer materiallarni yaratish uchun keng imkoniyatlar ochadi[9].

Polimer kompozit materiallarga mustahkamlangan strukturani olish uchun turli tolalar kiritiladi, chunki mustahkamlangan kompozit polimer materiallari yuqori mexanik mustahkamlikka ega. Tabiiy to‘ldiruvchi moddalar bilan bir qatorda uning zarrachalarining shakli va o‘lchamlari kompozitlarning xususiyatlariga sezilarli ta'sir ko‘rsatadi. To‘ldiruvchi zarrachalarning shakli va hajmi, ko‘p hollarda ular kompozit materiallarning mustahkamlik xususiyatlariga ma'lum ta'sir ko‘rsatadi.

Muammoning ushbu formulasiga muvofiq, biz qisqa PAN tolasi, mexanik faollashtirilgan qum, vollastonit va ularning kombinatsiyasining mustahkamlangan kompozit polimer materiallarining mustahkamlik xususiyatlariga ta'sirini o‘rgandik.

Polimerlarni kukunli to‘ldiruvchi moddalari bilan mustahkamlash mexanizmi nihoyatda murakkab hodisadir. To‘ldiruvchi moddalar o‘z tabiatiga qarab polimer kompozitlarning mustahkamlik xususiyatlarini oshirishi yoki kamaytirishi mumkin. Bu bizning mexanik faollashtirilgan qum va vollastonit tarkibining epoksid kompozitsiyalarning mustahkamligiga ta'sirini o‘rganish natijalari bilan tasdiqlanadi.

Natijalar. Epoksid kompozitsiyalarining mustahkamlik xususiyatlarining to‘ldiruvchi moddalar - kukunli ingredientlar va PAN tolalar tarkibiga bog‘liqligi 5-rasmda ko‘rsatilgan.

5-rasmdan ko‘rinib turibdiki, mineral to‘ldiruvchi moddalari - epoksid kompozitlar tarkibidagi mexanik faollashtirilgan qum va vollastonit kompozit materiallarning mexanik xususiyatlarini yaxshilaydi[10]. Xususan, og‘irligi bo‘yicha 6% miqdorida mexanik faollashtirilgan qum va vollastonit tarkibidagi kompozit materialda joriy to‘ldiruvchilarning miqdori ortishi bilan uzilishdagi mustahkamlik 50 MPa gacha oshadi.

To‘ldirgichlar tarkibining yanada ortishi bilan epoksid kompozitlarining uzilishdagi mustahkamligining biroz pasayishi kuzatiladi.

Buning sababi shundaki, epoksid qatroni mexanik faollashtirilgan qum va vollastonit bilan o‘zaro ta'sir qilish jarayonlariga ta'sir qiladi, to‘ldiruvchi yuzasiga namlash va tarqalishini osonlashtiradi, bu esa qum va vollastonit zarralari o‘rtasida bog‘lanishning zarur shartidir [11,12]. Bundan tashqari, epoksid kompozitlarining uzilishdagi mustahkamligining oshishi qum va vollastonitning mexanik faollashuvi vaqtida ularning o‘ziga xos sirt maydonining o‘zgarishi va zarrachalar yuzasining faollashuvi kuzatilishi bilan izohlanadi. Bu epoksid biriktiruvchi va to‘ldiruvchi moddalari o‘rtasida kuchli va murakkab bog‘lanishlarni vujudga kelishi uchun sharoit yaratishga olib keladi.



5-rasm. Epoksid kompozitlarining mustahkamlik xususiyatlarining tolalarning tarkibiga bog‘liqligi. 1 – mexanik faollashtirilgan qum, 2 – vollastonit, 3 - qisqa PAN tolasi



6-rasm. Epoksid kompozitlarining uzilishdagi mustahkamligining qisqa PAN tolasi, mexanik faollashtirilgan to‘ldiruvchilar miqdoriga bog‘liqligi. 1 - PAN tolasi + mexanik faollashtirilgan qum; 2 - PAN tolasi + vollastonit; 3 - qisqa PAN tolasi + mexanik faollashtirilgan qum + vollastonit

Muhokamalar. Og‘irligi bo‘yicha 15-20 % miqdorida qisqa PAN tolasidan foydalanganda epoksid kompozitlarining uzilishdagi mustahkamligidagi o‘zgarishlarning bir xil sxemasi kuzatildi. 11-rasmda epoksid kompozitlarining uzilishdagi mustahkamligining qisqa PAN tolasi tarkibiga haddan tashqari bog‘liq bo‘lib, mexanik faollashtirilgan qum va vollastonitdan foydalanadigan kompozitlar bilan solishtirganda maksimal tola tarkibiga qarab o‘zgaradi. Bunday holda, egri chiziq uchun maksimal qisqa PAN tolasini to‘ldirish qiymatiga to‘g‘ri keladi - og‘irlik bo‘yicha 20 %[13,14].

Shunday qilib, mexanik faollashtirilgan qum va vollostonitning optimal tarkibi, qisqa PAN tolasi mos ravishda 3-5 va 15-20 % ni tashkil qiladi.

6-rasmda to‘ldirilgan epoksid kompozitlarining mustahkamlik xususiyatlarining qisqa PAN tolalari, mexanik faollashtirilgan to‘ldiruvchi moddalari va ularning kompozitlar tarkibiga bog‘liqligi ko‘rsatilgan.

6-rasmdan ko‘rinib turibdiki, qisqa PAN tolalari va mexanik faollashtirilgan to‘ldiruvchi moddalari asosida hosil bo‘lgan mustahkamlangan kompozit polimer materiallarining turli nisbatlarda uzilishdagi mustahkamligi qisqa PAN tolalari va ularning tarkibi ortib borishi bilan ortadi[15]. Shunday qilib, l_a=1-3 mm bo‘lgan qisqa PAN tolalari va ularning kompozitlari asosida mustahkamlangan kompozit polimer materiallarda, uning tarkibi og‘irlik bo‘yicha 20 % ga ko‘tarilganda mustahkamligi ortadi, maksimal 138 MPa ga etadi. Qisqa PAN tolalari va ularning kompozitlari tarkibining yanada oshishi bilan materiallarning mustahkamlik xususiyatlarining pasayishi kuzatiladi[16].


1. Bundan tashqari elektromagnit tebranishlar tebranish generatorida hosil qilinadi va bu elektromagnit tebranishlarning chatotasi aniq bo‘lib radiotexnika va elektronikada qo‘llaniladi.
2. Tranzistorli elektromagnit tebranishlar generatori tebranish konturiga nisbatan ixcham bo‘lib undan elektronikada, kosmonavtikada va samalyotlarni boshqarishda keng qo‘llaniladi.

3. Tranzistorli generator yordamida kosmosdan yer sharini va bosha sayyoralarni o‘rganiladi.

4. Harakatlanayotgan avtomobillarning tezliklarini ham elektromagnit to‘lqin yordamida o‘lchanadi.

5. Avtomobillarni elektron dastur yordamida boshqarish va xavfsizligini ta'minlashda ham elektromagnit tebranishlardan foydalanilgani uchun tranzistorli tebranishlarni keng o‘rganishimiz shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Fizika fani bo'yicha O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim dasturi majmuasi (loyiha). Toshkent – 2021y. 6 b

2. Трофимова Т.И. Курс физики. Издательство «Высшая школа», 1985г. 219с.

3. Турдиев Н.Ш. ва бошқалар. Физика 10 синф. Умумий ўрта таълим мактаблари учун дарслик. –Т.: "Niso Poligraf" нашриёти, 2017. 156 б.

4. Umarov A.I., Zaxidov I.O., Axunov Q.X., Jo‘rayev I.A. Elektromagnit to‘lqinlar chastotasini "C++" dasturini qo‘llab aniqlash. DGU 14305 O‘zbekiston Respublikasining Dasturiy mahsulotlar davlat reestrida 21.01.2022 yil.

5. Umarov A.O., Zoxidov I.O. DETERMINATION OF THE FREQUENCY AND PERIOD OF ELECTRIC CURRENT OSCILLATIONS USING THE "C++" PROGRAM. Neuro Quantology Jul 2022 Volume 20 Issue 7 Page 432-435

6. Umarov Abdusattor and Ibrahimjon Zohidov. "TEACHING CHAPTER «ELECTRIC RESISTANCE» 8th–CLASS, PHYSICS COURSE." Збірник наукових праць ΛΌΓΟΣ (2020): 110-114.

7. Umarov A.O., Zoxidov I.O. O‘ZINDUKSIYA HODISASIGA ELEKTR TOKI QONUNLARINING QO‘LLANILISHI. SCIENCE AND INNOVATION 2022.№2Ю 86-89.

8. Zohidov I.O., Karimova R.K., Umarov A.O. "Elektr zaryadi, elektr maydoni" bobini o‘qitish 8-sinf, fizika kursi //Namangan davlat universiteti ilmiy xabarnomasi. - 2019. - 1jild. - Yo‘q. 12. - S. 298-302.

9. Ortikovich UA, Obidjonovich ZI Maktab fizika kursida o 'zgarmas va o'zgaruvchan tokni o 'rganish // Sharq renessansi: Innovatsion, pedagogik, tabiiy va ijtimoiy fanlar. - 2021. - 1jild. - Yo‘q. 3. - S. 433-436.

10. Umarov, Abdusattor, and Ibrahimjon Zohidov. "«ELECTRIC CONDUCTIVITY. DEPENDENCE ON CURRENT STRENGTH» TEACHING THE SUBJECT. ACCORDING TO 10th FORM." Збірник наукових праць ΛΌΓΟΣ (2020): 7-8.

11. Umarov, Abdusattor, and Ibrahimjon Zohidov. "TEACHING CHAPTER «ELECTRIC RESISTANCE» 8th–CLASS, PHYSICS COURSE." Збірник наукових праць ΛΌΓΟΣ (2020): 110-114.

FIZIK MASALALARNI YECHISH JARAYONIDA UMUMTA'LIM MAKTABLAR VA AKADEMIK LITSEY O'QUVCHILARINING BILIM FAOLIYATINI BOSHQARISH

Voxidov Erkin Ruzamaxammadovich
erkinbek_02@mail.ru
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitet

Annotasiya Mazkur maqolada umumta'lim maktablari va akademik litseylarda fizika fanini o'qitishda fizik masalalarni yechish jarayonida o'quvchilarni bilim faoliyatini boshqarish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Fizika, fan, ta'lim, bilim, ko'nikma, qobiliyat, malaka, nazariy, amaliy, laboratoriya, maktab, akademik litsey, tajriba, namoyish, tadqiqot, topshiriq, metod.

Аннотация В данной статье анализируются вопросы управления познавательной деятельностью учащихся в процессе решения физических задач в общеобразовательных школах и академических лицеях.

Ключевые слова: Физика, наука, образование, знание, навыки, способности, квалификация, теоретический, практический, лабораторный, школа, академический лицей, эксперимент, демонстрация, исследование, задание, метод.

Abstract This article analyzes the issues of managing students' cognitive activities during the process of solving physics problems in general education schools and academic lyceums.

Keywords: Physics, science, education, knowledge, skills, ability, qualification, theoretical, practical, laboratory, school, academic lyceum, experiment, demonstration, research, task, method.

Kirish. O'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalar bilan chambarchas bog'liq. O'quvchilar egallashlari kerak bo'lgan ko'plab malaka va ko'nikmalar orasida fizik masalalarni yechish mahorati (qobiliyati) katta ahamiyatga ega. Umumta'lim maktablari va akademik litseylarda fizika fanini o'qitish amaliyotini o'rganish o'quvchilarda masalalarni mustaqil yechish qobiliyatini rivojlantirish metodida jiddiy kamchiliklar mavjudligini ko'rsatdi.

Fizika tabiat qonunlarini o'rganishda yetakchi o'rinni egallashi bilan bir qatorda ilmiy tafakkur darajasi va uslubini belgilaydigan fan hisoblanadi. Aynan fizika inson ongidagi har qanday tushunarsiz vaziyatni tahlil qilish, uning fundamental, sifat va miqdoriy tomonlarini aniqlash va tushunish darajasini, vaziyatni vaqt davomida rivojlanish yo'nalishi va natijalarini nazariy jihatdan bashorat qilish imkoniyatiga yetkazish qobiliyatini eng to'liq namoyish etadi. Fizikaviy ta'lim butun jamiyat ta'lim darajasini, muhandislar, aniq va tabiiy fanlar sohasidagi mutaxassislarning bazaviy ta'lim darajasini belgilovchi eng muhim omil sifatidagi ahamiyati ortib bormoqda, bu esa uni takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Fizikaviy ta'lim bilimning barcha sohalari bo'yicha zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashning ajralmas tarkibiy qismidir [1].

O'quvchilarning masalalarni mustaqil yechish ko'nikmalarini egallashdagi muvaffaqiyati o'qituvchilarning dars o'tish mahoratiga, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini tashkil qilish va boshqarishiga bog'liq.

Asosiy qism: Masalalarni yechish - o'quv ishlarining majburiy turidir. O'quvchilarning umumiy aqliy rivojlanishi uchun uning ahamiyati katta. Masalalarni yechish jarayonida o'quvchilarning aqliy qobiliyatlari rivojlanadi, aqliy harakatlar tarkibi shakllanadi, ijodiy fikrlashlari oshadi.

Masalalarni yechish orqali o'quvchilar dunyo haqida chuqurroq bilimga ega bo'ladi, hodisa va qonuniyatlarni tushunadi, ularni boshqarish jarayonlarini idrok etadi. Fizikadan masalalar yechish, bilim olish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, bilimlarni amaliyotda tadbiq etish maqsadida foydalanadilar.

Masalalar yechishdagi mashqlar orqali o‘quvchilarning fazilatlari shakllanadi: fanga qiziqish, maxsus qobiliyatlari, iroda, qat’iyatlilik, insonning shaxs sifatida rivojlanishi va shakllanishi sodir bo‘lishi har bir o‘quvchida masalalarni yechish qobiliyatini shakllantirish juda muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Bu muammoni hal etishning mas’uliyati bevosita fizika o‘qituvchisiga yuklanadi. Ularning oldida o‘quvchilar faoliyatini boshqarish tizimini tanlash muammosi turadi. O‘qituvchiga bu muammoni yechishda metodistlar va psixologlar yordam beradi.

Masalalar yechishdagi mashqlar orqali shaxsning fazilatlari shakllanadi: fanga qiziqish, maxsus qobiliyatlari, iroda, qat’iyatlilik, insonning shaxs sifatida rivojlanishi va shakllanishi sodir bo‘ladi. Shuning uchun ham har bir o‘quvchida masalalarni yechish qobiliyatini shakllantirish juda muhim hisoblanadi [2].

Bu borada ayrim fizik olimlar – metodistlar, tajribali o‘qituvchilarning ishlari foydali bo‘ladi. Ularning xizmatlariga fizika bo‘yicha masalalarni yechish metodologiyasini ishlab chiqish, yechimga yondashishning mumkin bo‘lgan usullari, yechim jarayonining bosqichlari, fizik kattaliklarning nomlaridan foydalanish qoidalari, masalaning yechimini rasmiylashtirish va boshqalar kiradi. Fizika bo‘yicha ta’lim muammolarini tasniflashga urinishlar ham e’tiborga loyiqdir. Bir qator metodik qo‘llanmalarda darsning turli bosqichlarida, har xil turdagi o‘quv va darsdan tashqari faoliyatlarda masalalardan foydalanish samaradorligi bayon etilgan [3].

Ba’zi metodistlar va o‘qituvchilar “masalani yechishni qanday o‘rgatish kerak” degan muammoga ma’lum turdagi fizik masalalarni hal qilish algoritmlarini topishga olib keladilar [2]. Bunday tavsiyalar bilan tanishish o‘qituvchiga yordam beradi. O‘qituvchiga umumiy standartlarni bilishi va ulardan foydalanishi, o‘quvchilarning muammolarni hal qilish qobiliyatini tekshirishda qo‘yiladigan talablarni bilishi, u yoki bu turdagi muammolarni hal qilishning yondashuvi yoki u yoki bu turdagi masalani yechish umumiy tamoyilini bilishi muhimdir.

Ammo uslubiy adabiyotlarning beqiyos ahamiyatiga qaramay, uning maslahatlari o‘qituvchining kasbiy mahoratini shakllantirishga sezilarli ta’sir ko‘rsata olmaydi.

N.V.Kuzmina pedagogik ish ustalarining bilimlari tarkibi nafaqat metodikani mohirona qo‘llash, shu bilan birga bolalar psixologiyasini bilishi bilan ham ajralib turishini isbotladi [4].

Fizikaviy masalalarni yechishda andoza tuzilishi fizikaning zamonaviy usullari tomonidan eng muammoli deb tan olinadi. Ushbu etalon quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: vaziyatni tahlil qilish, yechim usulini tanlash, yechim rejasini tuzish, “umumiy ko‘rinishdagi” yechimni tuzish, fizik miqdorlarning o‘lchov birliklarini bitta tizimga aylantirish, izlanilayotgan kattalikni hisoblash, shuningdek, yechim natijasini tahlil qilish.

O‘qitish masalalarini shakllantirish jarayonida o‘qituvchi nafaqat o‘z bilimlari majmuasiga tayanadi. Uning ta’lim faoliyatida – fizik masalalarni yechish metodikasini o‘zlashtirish darajasi ham muhim ahamiyatga ega. Fizik mazmundagi masalalarni yechishning barcha bosqichlarini kerakli darajada bajarish, har qanday o‘quv muammosini yechish, masalalarda umumiylikni ko‘rish, yechimning mumkin bo‘lgan algoritmlarini hisoblash – bularning barchasi o‘qituvchi harakatlari maqsadga muvofiqdir.

Loyiha-konstruktiv bosqichining tuzilishi, o‘qituvchi tomonidan muammolarni amaliy hal qilishga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida bajaradigan, majburiy bosqichlar to‘plamini o‘z ichiga oladi.

Dastlab, darsning mazmuni o‘ylab chiqiladi, yangi bilimlar jalb qilinadi, material yangilanadi, dars materiali va metodologiyasiga qo‘yiladigan maqsadli talablar alohida belgilanadi, vazifalarni tizimlashtirish prinsipi aniqlanadi, o‘qituvchi va talabalarning harakatlari o‘rtasidagi taxminiy “muvozanat” aniqlanadi.

Keyin o‘qituvchi dars mavzusi bo‘yicha fizik masalalarni tanlashi; barcha masalalarni yechishi; vazifalarning o‘ziga xosligini aniqlashi (mazmuni, murakkabligi, yechishning mumkin bo‘lgan usullari, maqsadga muvofiqligi va boshqalar); tanlangan har bir topshiriqni yechish jarayonida o‘quvchilar duch kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni aniqlashi; masalani

yechishda o‘quvchilarning mustaqil ishtirok etishining mumkin bo‘lgan darajasini aniqlashi; yangi masalalarni tuzishda ta'lim oluvchilarning maqsadiga va imkoniyatiga muvofiq o‘zgartirishi; o‘quvchilar bilan ishlash shakllarini turlicha qilishi, ularni yechish jarayonida bevosita qiziqishlarini oshirish maqsadida sinfda har bir masalani yechishni tashkil etish usulini tanlashi; vazifalarni ma'lum ketma-ketlikda taqsimlashi; o‘quvchilarga yordam berishni puxta o‘ylashi (savollar, ko‘rsatmalarni tuzishi)ni bevosita amalga oshiradi.

O‘qituvchining fizik masalalarni o‘quvchi tomonidan yechish tuzilmasi o‘quvchilar uchun masala ustida ishlashning o‘ziga xos standartdir. O‘quvchilar o‘qituvchi har doim qiladigan harakatni takrorlaydilar. Fizik masalani yechish jarayonini o‘qituvchi tomonidan tashkil etish metodikasiga sharoitni tahlil qilish, yechish usulini tanlash, “umumiy” shakldagi yechimga kelish, o‘lchov birliklarini bir tizimga (sanoq sistemasiga) o‘tkazish, izlanayotgan kattalikni hisoblash, yechim natijalarini tahlil qilish kiradi.

Keltirib o‘tilgan tuzilma zamonaviy pedagogika fani tomonidan muammolarni hal qilishda mukammal yondashuv sifatida tan olingan standartga mos keladi.

O‘qituvchi o‘quvchilarda fizika fanidan masalalar yechish qobiliyatini rivojlantirish vazifasini butun “fizikaviy” malakalar majmuasini shakllantirish deb hisoblaydi.

Butun ko‘nikmalar majmuasini shakllantirish tartibi uzoq davom etadigan jarayon bo‘lib, o‘quvchilar uchun maktabda o‘qishning barcha yillari uchun mo‘ljallangan. Alohida shaxsiy ko‘nikmalar yoki ularning birgalikdagi ko‘nikmalarining shakllantirish o‘qitishning taktik masalalarini yechishning aniq maqsadlariga kiradi.

Yaxshi o‘qituvchining ishi o‘quvchilarning topshiriq (muammo, masala) bilan ishini tashkil etish usullarini tanlashda maqsadli yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. Turli ish shakllaridan foydalanish materialning mohiyati va bolalarning xususiyatlarini, mashg‘ulot vaqtini va boshqalarni hisobga olgan holda o‘tkaziladi. O‘qituvchi vazifasiga o‘quvchilar ta'lim jarayoniga yordam beradigan, o‘ziga xos shaxsiy xususiyatlarini kiritish ham kiradi.

Fizik masalalarni yechish jarayonida o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil eta olish o‘qituvchining didaktik masalalarni amaliy hal etish samaradorligining asosiy ko‘rsatkichlaridan biridir.

O‘qituvchi amalda kommunikativ muammolarni hal qilish masalasini muvaffaqiyatli hal etsa o‘z oldiga qo‘ygan maqsadga erishgan hisoblanadi. O‘qituvchi turli o‘quvchilar bilan muomala qilishiga to‘g‘ri keladi va ularning bilim, ko‘nikma, to‘g‘ri maqsadli harakatlarini tashkil etish esa o‘qituvchining o‘quvchilar shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishi, ularning har biri bilan to‘g‘ri munosabatlarni o‘rnatish mahoratiga bog‘liq.

Kommunikativ muammolarni hal qilish o‘qituvchining amaliy faoliyati sohasiga tegishli bo‘lib, bunda o‘qituvchi o‘quvchi bilan bevosita aloqada bo‘ladi.

Muammolarning murakkabligini aniqlash barcha o‘qituvchilar uchun his-hayajonli kechadi. U muammolarni yashirin shartlar va ma'lumotlar nuqtai nazaridan, matematik amallarning qiyinligi, tipik bo‘lmagan vaziyatlar va boshqalarni taqqoslashga asoslangan. Odatda, o‘qituvchilar muammo (masala)larning qiyinligini o‘quvchilarda uchraydigan qiyinchiliklardan izlashadi. Shu sababli, o‘qituvchi darslarga tayyorgarlik jarayonida masalalarni o‘zgartirish (o‘quv maqsadi va o‘quvchilarning imkoniyatlariga mos ravishda ularni soddalashtirish yoki murakkablashtirish) zarurligiga duch keladi.

Xorijiy tajribalar, jumladan, Finlandiya, Yaponiya, Koreya va shu kabi rivojlangan mamlakatlarda fizika fanini o‘qitishni tahlili nazariyadan ko‘ra amaliy mashg‘ulotlarga ko‘proq e'tibor berilishini ko‘rsatadi [5]. Fizik qonun qoidlar va turli jarayonlarni o‘rganish orqali tabiatda va texnikada ro‘y beradigan jarayonlarni asl mohiyatini, fizik asoslarini tushunib yetishiga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchining dunyoqarashini, mantiqiy fikrlashini yanada rivojlantiradi.

Taklif va tavsiyalar: O‘qituvchi muammoni tahlil qilishda topshiriq mazmunini hayotda kuzatiladigan hodisalar bilan bog‘lay bilish; tabiatdagi fizik qonuniyatlarni topishi; topshiriq

(masala)ning sharti bilan tavsiflangan yashirin vaziyat qonuniyatlarni aniqlashi; masalaning shartidagi barcha ochiq va yopiq berilgan qiymatlarni ajratib ko‘rsatishi (masalaning shartini “o‘ylash” mahorati); fizik holatni fazoviy, sxematik tasvirlashi; birlashtirilgan masalalarni elementar masalalarga ajratishi; fizik holatni shartga muvofiq, to‘g‘ri tasvirlay olishi; vazifa turini aniqlashiga alohida e’tibor berishi kerak.

Yechim usulini tanlash va yechim rejasini tuzishda qidirilayotgan narsani ajratish va tavsiflashi; istalgan kattalikning boshqa kattaliklar bilan ko‘p bog‘lanishlari orasidan masalaning sharti bilan to‘liqroq tavsiflanganlarini ajratib ko‘rsatishi; izlanyotgan kattaliklarni ba’zi munosabatlarini inobatga olmasligi (fizikaviy holatning realligi (haqqoniyligi)ni cheklashi) qidirilayotgan kattalik aniqlashning bir necha usullarini topishi; istalgan noma’lumdan ma’lum kattaliklarga qiymatlarga o‘tish g‘oyasidan yechim rejasini tuzishi; tanlangan yechim usulining asoslanganligini isbotlashi muhim hisoblanadi.

O‘qituvchi masalalar yechishda masalaning shartini kattaliklar orqali ifodalashi; masalani mavhum yechish mahorati (fizik kattaliklarni matematik funksiyalar sifatida ifodalash orqali izlanayotgan qiymatini topishi); barcha kattaliklarni bir xil birliklar sistemasida ifodalashi; barcha kerakli matematik amallarni bajarishi; matematik hisoblashlarni soddalashtirishi kerak. Shu bilan birgalikda yechim natijasini tahlil qilishda yechim natijasini boshqa qanday usullar bilan tekshirishi hamda topilgan yechimni xususiy holatlarda qo‘llay olish malakasi katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa: O‘qituvchilar faoliyati tahlili shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilar bilishining o‘ziga xosliklari va muayyan muammoni hal qilishda ularning qiyinchiliklarini oldindan ko‘ra bilish o‘qituvchining bolalar faoliyatining tashkiliy shakllarining samaradorligini aniqlash qobiliyatida ham namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi o‘quvchilar mustaqil ravishda nima qila olishlari va ularga qanday qiyinchiliklar tug‘dirishi o‘rtasida o‘ziga xos balans o‘rnatadi. Bu o‘qituvchiga o‘quvchilarning bilim olish faoliyatiga aralashishi va ularga yordam ko‘rsatishda u yoki bu faoliyat vaqtini ajratishga imkon beradi.

Materialning xususiyatlarini hamda o‘quvchilar aqliy faoliyatining xususiyatlarini bilish, o‘qituvchiga yordamning turi va xarakterini aniqlash imkonini beradi. Shunday qilib, masalalarni yechish jarayonida o‘zaro munosabatlarning oqilona taqsimlanishi o‘rnatiladi, bunda, bir tomondan, o‘quvchining masalani yechishdagi kuchi yetadigan hissasi va mustaqilligi cheklanmaydi, uning bilish qobiliyati faollashadi, boshqa tomondan, o‘quv materiali o‘zining murakkabligi bilan o‘quvchilarni ruhiyatini tushurmaydi, ochiqlik va bajaraolish sifati ortadi.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Xudayberdiev O‘.S. Fizika fanini o‘qitishni takomillashtirishning ayrim masalalari. ChirchiqDPI Zamonaviy ta’limda matematika, fizika va raqamli texnologiyalarning dolzarb muammolari va yutuqlari nomli konfirknsiya materiallari to‘plami. 2021-yil. B.214-219.

2. Кириков М.В., Алексеев В.П. Вопросы методики преподавания физики: Текст лекций / Яросл. гос. ун-т. Ярославл, 2000. 72 с.

3. Voxidov E.R. Fizika fanidan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish // “Fizika va Ekologiya” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi, Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI, – Nukus, 2023 yil 15-16 sentabr. –B 186-190.

4. Кузмина Н.В. Формирование педагогических способностей.- Л., 1961; Кузмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения.- М., 1990.

5. M.Qodirov. O‘zbekiston ta’lim tizimini qanday transformatsiya qilish kerak? Rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimi tahlili nimalarni ko‘rsatmoqda // Risola. Samarqand: SamDU nashriyoti. – 196 bet.

TA’LIMDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR

MAKTAB O‘QUVCHILARIDA FIZIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Ibadullayev Gayrat Aqmuradovich
Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kundagi bo‘lajak fizika-astronomiya o‘qituvchilarining kompetenligini rivojlantirish tizimining holati va uni takomillashtirish borasida olib borilayotgan izlanishlarni tahlil qilish bilan birga ta’lim tizimiga axborotkommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali ta’lim samaradorligini oshirish bo‘yicha qilingan ijobiy ishlar tahlili keltirilgan.

Kalit so‘zlar: uzluksiz ta’lim, elektron ta’lim, tizim, bilim, ko‘nikma, malaka, tahlil, kompetentlik, kompetensiya, fan, innovatsiya, fizika, astronomiya, axborot, kommunikatsiya, jarayon, shakl, usul, muammo, vaziyat.

Tadqiqotning maqsadi:

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 7-11 sinf o‘quvchilarida fizik kompetensiyalarni shakllantirish tizimini takomillashtirishdan iborat.

Mavzusining dolzarbligi va zarurati:

Bugungi kunda jahondagi rivojlangan mamlakatlar o‘quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish sohasida yuqori samaradorlikka erishilmoqda.

Bu, o‘z navbatida:

- kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- ularni ijtimoiy faoliyatga tayyorlash;
- olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda sinab ko‘rish;
- axborotlar bilan faol ishlash kompetensiyalarini shakllantirish kabilar 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta’lim konsepsiyasida ustivor yo‘nalishlar sifatida o‘z aksini topgan.

Bugungi kunda respublikamizda:

- “O‘rta ta’lim konsepsiyasi”
- o‘rta ta’lim uchun o‘quv dasturlari
- o‘rta ta’lim uchun o‘quv-metodik majmualarda

o‘quvchilarning tayanch va fanga oid fizik kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Ayniqsa, xalqaro baholash dasturlari asosida umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchilarida fizik savodxonlikni rivojlantirishning didaktik tizimini ishlab chiqish, o‘qituvchilarni o‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalarni tarkib toptirishga tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu borada, O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va ro‘yobga chiqarish” kabi yo‘nalishlar belgilangan.

Bu esa, fizika va astronomiya darslarida 7-11 sinf o‘quvchilarida tayanch va hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish, tayanch matematik kompetensiyalarni tarkib toptirishning ijtimoiy-pedagogik tizimini takomillashtirishni taqozo etadi.

Ta’limni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish sohasidagi xorijiy tajribalar tahlili va ulardan foydalanish istiqbollari.

Ta’limni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishning tarixiy taraqqiyot yo‘li to‘rta bosqichlarda o‘z ifodasini topgan.

• **Birinchi bosqich** dastlabki taraqqiyot bosqichi bo‘lib, 1960-1970 yillarni qamrab oladi. Bu davrda “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarining izohi ilmiy adabiyotlarda o‘z ifodasini topa boshlagan. Dastlab tillarni o‘rganish nazariyasida o‘quvchilarda nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish g‘oyasiga asos solingan. Ilk bor D.Hymes tomonidan fanga “kommunikativ kompetentlik” tushunchasi kiritilgan

• **Ikkinchi bosqichi** 1970-1990 yillarni o‘z ichiga oladi. Mazkur bosqichda xorijiy tillarni o‘rganish tajribasida, shuningdek, kasbiy mahoratni rivojlantirish, menejment sohalarida, shaxslararo muloqot va munosabat o‘rnatishda kompetensiya, kompetentlik tushunchalaridan foydalanila boshlangan. Bu davrda kompetentlikning “tayyor bo‘lmoq”, “layoqat” kabi ma’nolarda taqdim etilishi bilan bir qatorda “javobgarlik”, “mas’uliyatlilik” kabi shaxsiy sifatlarni ifodalashi ham ta’kidlangan.

• **Kompetentli yondashuv nazariyasini rivojlantirishning uchinchi bosqichi** o‘tgan asrning 90 yillaridan boshlangan. Bu davrga kelib ta’lim jarayonida kompetentlikni qo‘llashga oid dastlabki ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. 1993-1996 yillar davomida dastlab A.K.Markovaning ishlarida mehnat psixologiyasi kontekstida kasbiy kompetentlik maxsus predmet sifatida har tomonlama tahlil qilingan.

• **Kompetensiyaviy yondashuv nazariyasi va amaliyoti taraqqiyotining to‘rtinchi bosqichi** o‘ziga xos bo‘lib, ushbu bosqichda kompetensiyalarni kasbiy ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim fanlari mazmuniga singdirish ustuvor o‘rin egallaydi.

Xorijiy tajribalar tarixi va tahlilini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, AQShda 1980 yillardan boshlab ta’lim standartlari yaratilib, amaliyotga joriy etilgan. Germaniyada 1970 yilda PISA tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar butun mamlakat bo‘yicha past natija ko‘rsatganidan so‘ng ta’lim standartlari va unga muvofiq tarzda yangi o‘quv dasturlari ishlab chiqilgan. Buyuk Britaniya maktablarida o‘quvchilarda oltita tayanch kompetensiyani shakllantirish nazarda tutilgan. Niderlandiya, Avstriyada ham o‘quvchilarda muayyan kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimi ilmiy jihatdan asoslangan. Rossiyada ta’lim standartlari haqidagi tushuncha dastlab, 1992 yilda Rossiya Federatsiyasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinganidan so‘ng kirib kelgan. Qozog‘iston Respublikasi Hukumati tomonidan ham 2012 yil 23 avgustda “Tegishli ta’lim bosqichlarining davlat umummajburiy ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilingan.

Tayanch kompetensiyalar:

Walo Hutmacher Yevropa hamjamiyati tomonidan qabul qilingan quyidagi tayanch kompetensiyalarni ko‘rsatib o‘tgan edi:

- siyosiy va ijtimoiy kompetensiyalar;
- ko‘pmadaniyatli jamiyatda yashash imkonini beradigan kompeten-siyalar;
- kommunikativ kompetensiyalar;
- axborotlarni o‘zlashtirish kompetensiyasi;
- uzluksiz ta’lim olish kompetensiyasi kabilar.

Yevropa Ittifoqining “Yevropa uchun tayanch kompetensiyalar” deb nomlangan simpoziumida

- o‘quvchining bilish faoliyati;
- izlanishi;
- fikrlashi;
- hamkorlikda ishlash,
- bilimlarni amaliyotda qo‘llash,
- ijtimoiy muhitga moslashish kabi tayanch kompetensiyalari tavsiflab berilgan.

J.Delor o‘z tadqiqotlarida tayanch kompetensiyalarni to‘rt ustunga jamlagan edi. Ular:

- bilishni o‘rganish,
- bajara olishni o‘rganish,
- birgalikda yashashga o‘rganish,

- yashashga o‘rganish .

Buyuk Britaniya maktablarida o‘quvchilarda oltita tayanch kompetensiyani shakllantirish nazarda tutilgan. Ushbu kompetensiyalarni shartli tarzda muayyan guruhlarga biriktirish mumkin. Asosiy kompetensiyalar:

– muloqotga kirishish;
– hisoblash;
– axborotlar bilan ishlash kabilardan iborat.

Keng ko‘lamli tayanch kompetensiyalar:

– atrofdagilar bilan hamkorlikda ishlay olish;
– o‘qish, o‘rganish va takomillashish ko‘nikmasi;

turli muammolar va masalalarni yechish ko‘nikmasi kabilar.

Niderlandiyada o‘quvchilarda quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta'lim tizimi yaratilgan:

- strategik kompetensiyalar; ular o‘quvchilarda istiqbolga intilish ko‘nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi.

– predmetli kompetensiyalar; mazkur kompetensiyalar o‘rganilayotgan o‘quv fani doirasida hosil qilinadigan bilim, ko‘nikma, malakalarni o‘zida mujassamlashtiradigan amaliy faoliyat tajribasini ifodalaydi.

– metodik kompetensiyalar; ular o‘z mazmuniga ko‘ra faoliyatni boshqarish ko‘nikma va malakalarni ifodalaydi.

– axloqiy-madaniy xarakterdagi ijtimoiy kompetensiyalar; ushbu kompetensiyalar o‘z tarkibida o‘zaro hamkorlik ko‘nikmalari, tanqidga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish, teskari aloqa o‘rnatish kabilarni mujassamlashtiradi.

Avstriya ta'lim tizimida ham o‘quvchilarda o‘ziga xos kompetensiyalar hosil qilish nazarda tutilgan. Ular:

- shaxsni rivojlantirishga yo‘naltirilgan kompetensiyalar;
- ijtimoiy hamda muayyan sohaga oid kompetensiyalar.

Xorijlik mutaxassislar sohaga oid kompetensiyalarni ham aniqlashga muvaffaq bo‘lganlar. Bunday kompetensiyalar sirasiga:

- Tildan foydalanish va kommunikativ kompetensiya;
- Ijodkorlik va dizaynerlik kompetensiyasi;

Qozog‘iston Respublikasida maktabgacha tarbiya va ta'lim maskanlarida tarbiyalanayotgan,ta'lim olayotganlar quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha kompetentlikka ega bo‘lishlari belgilab qo‘yilgan:

- Salomatlikni saqlash kompetentligi;
- Kommunikativ til kompetentligi;
- Bilish kompetentligi;
- Ijodkorlik kompetentligi;
- Ijtimoiy kompetentlik.

Tayanch kompetensiyalarning eng maqbul varianti Xalqaro pedagogika fanlari akademiyasining akademigi, pedagogika fanlari doktori A.V.Xutorskiy tomonidan ishlab chiqilgan. Unga ko‘ra tayanch kompetensiyalar:

- Qadr-qimmat, e'tiqod kompetensiyasi.
- Umummadaniy kompetensiyalar.
- O‘qish-o‘rganish kompetensiyasi.
- Axborotlarni o‘zlashtirganlik kompetensiyasi.
- Kommunikativ kompetensiya.
- Ijtimoiy mehnat kompetensiyasi.
- Shaxsni takomillashtirish kompetensiyasidan iborat

Kompetensiya va kompetentlilik tushunchalari

A.V.Xutorskoy o'z tadqiqotlarida bunday farqlarni alohida ajratib ko'rsatgan. Uning ta'biricha, kompetensiya ta'limiy tayyorgarlikka qo'yilgan ijtimoiy talab sifatida baholanadi.

Kompetentlilik esa, muayyan kompetensiyani o'zlashtirish, egallashdan iborat faoliyat bo'lib, faoliyat predmetiga nisbatan shaxsiy munosabatni mujassamlashtiradi.

I.A.Zimnyaya kompetensiyani muayyan ichki potensial, yangidan shakllangan yashirin ruhiy holat sifatida talqin etadi. U insonning kompetentliligi doirasiga bilimlar, tasavvurlar, algoritmlarni kiritib, faoliyat ifodasi sifatida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi.

V.V.Bashevning ta'kidlashicha, kompetensiya sharoitdan kelib chiqqan holda layoqatlarni ko'chirishdan iborat bo'lib, u shaxsning dastlabki hayotiy faoliyati davomida hosil bo'ladi.

G.I.Sukermanning ta'kidlashicha, kompetentlilik tushunchasini noaniq vaziyatlarda harakat qilish tushunchasi to'ldiradi. Kompetentlilik bitiruvchi sinf o'quvchilari bilim, ko'nikma va malakalarining shunday sifatiki, u, birinchi navbatda, moslashuvchanlik, ziddiyatlar va noaniqliklarga nisbatan bardoshli bo'lishni ta'minlaydi. O'quvchining kompetentliligi topshiriqlarni yechish jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llay olish shakli sifatida namoyon bo'la oladi.

Yu.M.Asadovning ta'biricha, o'quvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalar – ularning ta'lim-tarbiya maqsadlariga qaratilgan turli xatti-harakatlarni bajarishga imkon beradigan nazariy bilimlar, amaliy ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar yig'indisidir.

R.Safarova, R.X.Djuraevlar tomonidan "kompetensiya" va "kompetentlik"ka quyidagicha ta'rif berilgan: kompetensiya (lot. sompete-erishyapman, munosibman, loyiqman) - 1) u yo bu sohadagi bilimlar, tajribalar; 2) shaxsning biror-bir sohadan xabardorligi, shu sohani bilish darajasi, kompetentlik– 1) ma'lum holat xususida to'g'ri mulohaza yuritishga imkon beradigan bilimga ega bo'lish, dalil-isbotli fikr, kishining muayyan sohadagi saviyasi.

B.Xodjaev "kompetensiya" tushunchasiga berilgan aksariyat ta'riflarni kasbiy ta'lim, faoliyat bilan bog'liqlikda bayon etilganligini aytgan va kompetensiya- ma'lum bir sohada samarali produktiv faoliyat uchun zarur bo'lgan o'quvchining avvaldan belgilangan ta'limiy tayyorgarligiga qo'yiladigan ijtimoiy talablar (me'yorlar)dan ham o'zib ketishidir, deb ta'rif bergan.

Yu.G.Taturning ta'biricha: kompetensiyaviy yondashuv inson muammolarni tushungan holda o'z imkoniyatlari doirasida kutilayotgan natijalarni tasavvur eta olish va ularga erishish uchun amalga oshiriladigan harakatlarni baholay olish, faoliyatni qiyinlashtirayotgan sabablarni va ularni bartaraf etish vosita hamda yo'llarini topish orqali muvafaqqiyatli ijodiy faoliyat yurita olish layoqatidir.

V.A.Bolotovning ta'biricha, kompetensiyaviy yondashuv insonning o'quv vazifalaridan tashqarida va o'quv vaziyatlarida samarali harakatlanish layoqatidir.

A.M.Mityaeva uchun esa kompetensiyaviy yondashuv ko'p darajali o'quv jarayonini loyihalashning metodologik asosi hisoblanadi.

O.Ye.Lebedev esa o'z ishlarida kompetensiyaviy yondashuvni ta'lim mazmunini aniqlovchi umumiy prinsiplar majmui, o'quv jarayonini tashkil etish va ta'lim natijalarini baholash imkoniyati sifatida tushunadi.

7-11-sinf o'quvchisiga kompetentli yondashuv asosida ta'lim berish o'quv jarayoniga nisbatan yangicha yondashuv shakli hisoblanadi. Bunday yondashuv natijasida umumiy o'rta ta'limning 7-11-sinf o'quvchilarida tizimli tarzda bilim, ko'nikma, malaka, layoqatlar va shaxsiy sifatlarni shakllantirish imkoniyati kengayadi. Natijada o'quvchilar topshiriqlarni muvaffaqiyatli yechish va o'z bilimlarini amaliy faoliyatlariga tatbiq etish ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

Kompetentsiyaviy yondashuvni quyidagicha tavsiflash mumkin:

1. O‘quvchining amaliy faoliyatini kengaytirishga yo‘naltirilganligi. Bu jarayonda o‘quvchilarning ko‘nikmalarini mustahkamlashga yo‘naltirilgan mashqlar va masalalardan foydalaniladi.

2. O‘quvchilarning amaliy faoliyatlarini tizimli, uyg‘unlashtirilgan holda rivojlantirish. Bunda matematika o‘quv fani bo‘yicha dastur mavzulari, darslikdagi o‘quv materiallarini o‘zaro integratsiyalashtirilgan holda taqdim etish nazarda tutiladi.

3. O‘quvchilarning ko‘nikmalarini o‘quv bloklari va modullari yordamida kompleks rivojlantirish. Bunda matematikaga oid bilimlar, hisoblash usullari, algoritmlar muayyan bloklar va modullar tarkibida ifodalanadi.

4. O‘quvchilarning hisoblash ko‘nikmalarini davomiylik asosida rivojlantirish. Bunda o‘quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlarini har tomonlama hisobga olgan holda masala, misollar, savol va topshiriqlarni tanlash va tizimlashtirish talab qilinadi.

Xulosa

Tahlillarimizdan shu narsa ayon bo‘ldiki, kompetensiya va kompetentlilik tushunchalari olimlar tomonidan turlicha tavsiflangan, biroq ularning asosini shaxsning muayyan sohadagi layoqati, mahorati, mustahkam ko‘nikma va malakalari tashkil etadi. Kompetensiya va kompetentlilik tushunchalari o‘zining tarkibiy mohiyatiga ko‘ra kognitiv, texnologik-operatsion, motivatsion, ijtimoiy-axloqiy xarakterga ega.

Kompetensiya – o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘zlarining kundalik faoliyatlarida qo‘llay olish layoqati,

Kompetentlik – o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini optimal va samarali qo‘llay olish layoqati sifatida baholanadi.

Kompetentlilik ta'limning asosiy maqsadi sifatida namoyon bo‘ladi. U faoliyatning turli xil turlarini amalga oshirishga tayyorligini ifodalaydi.

Kompetensiya bilim, ko‘nikma, malakalardan tubdan farq qilsada, ularni inkor etmaydi.

Kompetensiya **bilim**lardan ular faoliyat turi haqida axborot berish bilan emas, balki faoliyat turida mavjudligi bilan farqlanadi.

Kompetensiya **ko‘nik**malardan turli vazifyatlarda turli-tuman topshiriqlarni yechish imkoniyatiga egaligi bilan ajralib turadi.

Malakalardan esa kompetensiya anglanganligi, avtomatlashmaganligi bilan farqlanib, u o‘quvchilarga nafaqat odatiy, balki nostandart vaziyatlarda ham aniq harakatlanish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абдукодиров А., Пардаев А. Толковый словарь терминов по педагогическим технологиям. – Ташкент: Наука и технологии, 2012. – 44 с.

2. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. – Т.: Издательство «Наука и технологии», 2006.

3. Болтаева М.Л. Развитие самостоятельной учебной деятельности студентов в процессе обучения физике: Автореф. дис. … канд. педагогич. наук. – Т.: ТДПУ, 2004. – 20 с.4. Mamadazimov M., Narbaev A., Dadaboeva F. Astronomiya o‘qitishning innovatsion usullari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2020. – 289 b.

5. Мамадазимов М., Ризаев Т. Проблемы преподавания астрономии в системе непрерывного образования – Ташкент, 2016. – 281 с.

6. Маматова Я., Сулайманова С. Узбекистан на пути развития медиаобразования. Учебное пособие. – Т.: «Экстремум-пресс», 2015. – 94 с.

7. Мамедова К.А. IT-технологии как необходимый компонент системного образования // Универсум: психология и образование: эл. научн. журнал. 2016. № 9 (27).

8. Davletov E., Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik kompetensiyalarni shakllantirish tizimini takomillashtirish Avtoref. dis. … ped. fanl. doktiri ilmiy darajasini olish uchun. N.: QDU, 2022. – 24 b.

9. Хуторской А.В. Педагогическая деятельность – Теория и практика – Москва, 2009.

10. Хуторской А.В. Научная школа человекообразного образования – концепция и структура – Москва, 2009.

11. В.В. Башев., Автореферат дис. ...кандидат психологических наук: 19.00.13/Рос. акад. образование Психол. ин-т. – М., 2000. – 18 с.

ILM, TADQIQOT VA TARAQQIYOT ILMIY JURNALI

Ilmiy jurnalda maqolalarni chop etish uchun rasmiylashtirishga qo‘yiladigan talablar:

1. Namangan davlat texnika universitetining «ILM, TADQIQOT VA TARAQQIYOT» ilmiy jurnali (Научный журнал «НАУКА, ИССЛЕДОВАНИЙ И РАЗВИТИЯ», Scientific Journal «SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT»)da respublikamizning oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalalari, ilmiy-ishlab chiqarish markazlari va xorijda bajarilgan ilmiy ahamiyatga molik ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari nashr etiladi. Ilmiy jurnalning bir yilda oltita soni (elektron) chop etilib, unda quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha maqolalar e’lon qilinadi:

- *Avtomobil yo‘llaridagi innovatsion texnologiyalar va tadqiqotlar;*
- *Transport muhandisligi;*
- *Texnika va texnologiya;*
- *Taraqqiyot strategiyasi: aqlli shahar, raqamli iqtisodiyot, sun’iy intellekt;*
- *Energetika va muqobil energiya manbalari:*
- *Ta’limda zamonaviy texnologiyalar.*

2. **Taqdim etilgan maqolalarga qo‘yiladigan talablar:**

Maqolalar o‘zbek, rus yoki ingliz tillarida taqdim etilishi mumkin. Maqolaning nomi, qisqacha annotatsiyasi (8-12 qator) va kalit so‘zlar (5-8 ta) o‘zbek, rus va ingliz tillarida beriladi.

-maqola matni “MS Word” dasturida “Times New Roman” shriftida 12 pt o‘lchamda, hajmi 1 intervalda 4-7 (pedagogika fanlar bo‘yicha 5-12) bet bo‘lishi kerak. Varoq o‘lchami 210x297 mm (A4 format), matn chegara o‘lchamlari yuqoridan va pastdan – 2,0 sm, chapdan – 3,0 sm, o‘ngdan – 1,5 sm bo‘lishi lozim.

-ilmiy jurnalning yo‘nalishiga oid dolzarb mavzularda ilmiy va to‘liq fikrlarga asoslangan, taklif va tavsiyalar bilan maqolalar taqdim etilishi;

-UO‘T(UDK), keyingi qatorda maqolaning nomi o‘zbek, rus va ingliz tillarida (bosh harflarda, o‘rtada, qalin yozuvda (жирный)), undan keyingi qatorda mualliflar to‘g‘risidagi ma’lumotlar (familiyasi, ismi, otasining ismi, ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, elektron manzili hamda telefon raqamlari) o‘zbek, rus va ingliz tillarida kichik bosma harflarda yoziladi.

- maqola xalqaro **IMRAD** formatida yozilishi kerak;

- maqolaning annotatsiyasi (abstract) ya’ni maqolaning qisqacha mazmunida maqsadi (objective), usullari (methods), natijalari (results) va xulosa (conclusion) qismlari qisqacha yoritilib o‘tilishi shart. Chunki maqola annotatsiyasini o‘qib chiqib, olim maqolani to‘liq o‘qishga qaror qilishi uchun maqolaning asosiy tushunchalarini yetarlicha tushinishi kerak. Annotatsiyadan so‘ng mavzuga tegishli terminlar, kalit so‘zlar (keywords) ham keltirilishi kerak;

- maqolaning asosiy qismida Kirish (Introduction), usullar (Methods), natijalar (Results), olingan natijalar tahlili (Analysis), muhokamalar (Discussion) va xulosalar (Conclusion) bo‘limlari aniq ma’lumotlar asosida yoritib berilishi kerak. Bir qatordan so‘ng maqola matni yoziladi.

-maqoladagi formulalar Word matn muharririning Microsoft Equation 3.0 yoki MathType ilovasida yoziladi.

- rasm (grafik, sxema va chizma)lar standart qoidalarga rioya qilingan holda 10x10 sm dan katta bo‘lmagan o‘lchamda tayyorlanishi, ularni soni 5 tagacha, qisqa xabarlarda esa 2 tagacha ruxsat etiladi. Nomlari esa rasmdan so‘ng qalin yozuvda o‘rtada yoziladi (masalan, **1-rasm. Nomi**). Jadvallarning nomlari jadvalning yuqori qismida qalin yozuvda o‘rtadan yoziladi (masalan, **1-jadval. Nomi**).

- adabiyotlarga havolalar o‘zbek va rus tilidagi maqolalar uchun ГОСТ 7.32-2001 yoki O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiyasi komissiyasining dissertatsiya va avtoreferatlarni rasmiylashtirishga qo‘yilgan talalablarga asosan tayyorlash maqsadga muvofiq.

Adabiyotlarga havolalar maqola ichida [1] ko‘rinishda bo‘lib, foydalanilgan adabiyotlar maqola oxirida havolalar ketma-ketligi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro‘yxatida quyidagilar ko‘rsatiladi:

- jurnalda chop etilgan maqolalar va ma’ruza tezislari uchun – Mualliflarning familiyasi, ismi sharifi. Maqolaning nomi // Jurnalning nomi. – Nashr joyi va yili. – Soni yoki qismi, – betlari;
- monografiyalar uchun - Mualliflarning familiyasi, ismi sharifi. Nomi. – Nashriyot nomi, joyi va nashr yili. – Betlar soni;
- avtoreferatlar uchun - Muallifning familiyasi, ismi sharifi. Mavzusi: ishning darajasi. – Nashr joyi va yili. – Betlar soni;
- dissertatsiya uchun - Muallifning familiyasi, ismi sharifi. Mavzusi: ishning darajasi. – Nashr joyi va yili. – Betlar soni.
- kitoblar uchun - mualliflarning familiyasi, ismi sharifi, kitobning nomi, nashr joyi, nashriyot nomi, nashr yili, qismi va betlari;
- patent uchun – Patent olingan davlat va uning raqami. Patent nomi/ Mualliflarning familiyasi, ismi sharifi // nashr nomi. – nashr yili. – Byulleten raqami.
- internet ma’lumotlari uchun - URL, ma’lumotga murojaat etilgan sana.

3. Keltirilgan talablar yakuniy emas, ba’zi maqolalar borasida tahririyat qo‘shimcha ma’lumot so‘rash huquqini saqlaydi.

4. Tahririyat barcha maqolalarni taqrizga yuboradi, taqriz natijalari asosida maqolani chop etish masalasi bo‘yicha tegishli qaror qabul qiladi.

5. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqilmaydi. Yuborilgan maqolalar mazmuni uchun mualliflar o‘zlari mas’uldirlar.

Tahririyat manzili: 160103. Namangan shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 12-uy. Telefon/faks: (369) 234-15-23,
Bizning sayt: https://tadqiqottaraqqiyot.uz/
e-mail: ittjurnal@namdtu.uz

Aloqa uchun: +998977600462, +998993627801